



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
talim vazirligi**

Namangan Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti

Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi

4-bosqich talabasi


Umetov Artiqbek Rahimbekovichning

Sharq miniatyura san'ati va namoyondalari, maktablari

(Samarqand va Xirot).

mavzusidagi

Bitiruv Malakaviy Ishi



NAMANGAN-2014

MUNDARIJA:

Kirish.....	3-7
I BOB. Sharq miniatyura san'ati maktablari va namoyondalari	
1.1. SHarq miniatyura maktablari va ularning qisqacha tarixi.....	8-14
1.2. Kamoliddin Bexzod va Hirot maktabi.....	15-31
II BOB. Temur va Temuriylar davrida Samarqand va Hirot madaniyati	
2.1. Temur va Temuriylar davri tasviriy san'ati va maktablarining rivojlanishi.....	32-38
2.2. Temur davri qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralar va ulardagi Temur obrazining tasvirlanishi.....	39-46
Xulosa.....	47-48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	48-50

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining san’atsevarligi, san’atning barcha turlarini qadrlashi bilan nom chiqargan. Ayniqsa, xalqimiz orasida musavvirlik san’ati yuksak qadrlangan, musavvirlarga alohida hurmat-e’tibor ko‘rsatilgan. Asrlar osha insonlarga go‘zallik hadya etib kelayotgan musavvirlik, ayniqsa, uning o‘ziga xos yo‘nalishi bo‘lgan miniatyura san’ati uzoq yillar davomida shakllangan, sayqallangan ijod turidir. Sharq miniatyurasining nozik jihatlari, murakkabliklari ijodkordan katta mehnat va izlanishni talab etadi. Miniatyura asarida tabiatni, inson-u jonzotlarni, bir qarashda biz anglamaydigan go‘zallikni tasvirlab, uni yuksak san’at asariga aylantirish uchun ijodkor keng bilim va mahorat, yuksak saviya, did va qobiliyat sohibi bo‘lishi lozim. Shundagina u yaratgan asar haqiqiy san’at asari darajasida e’tibor topadi¹. Bir so‘z bilan aytganda, musavvirning asarlarini qog‘ozga ko‘chgan ko‘ngil deb ta’riflash mumkin. Miniatyuralar chizish tarixi tosh davriga borib taqaladi. Avval toshlarga, keyin hayvonlarning terilariga chizish orqali shakllanib, rivojlanib borgan. XIV-XVII asrlarga kelib bu soha yuksak darajada kamol topgan. Aynan shu davrga kelib, “Samarqand miniatyura maktabi”, “Hirot miniatyura maktabi”, "Buxoro miniatyura maktabi", "Boburiylar miniatyura maktabi" singari ushbu yo‘nalishdagi qator ijodiy maktablar vujudga kelgan. XV-XVII asrlarda Markaziy Osiyo tasviriy san’at maktablarida portret janri hamda tarixiy voqealar tasviri uzviy va izchil mavzuga aylanganligi kuzatiladi. Masalan, Buxoro miniatyurasiga e’tibor qaratilsa, asosan tabiat go‘zalliklariga oshuftalik tasvirlangan. Xirotda esa odamlarning qiyofasini tasvirlash ommalashgan. Bu xususda tarixiy manbalarda juda ko‘p ma’lumotlar keltirilgan. Sharq miniatyurasi rivojida mashhur rassom Kamoliddin Behzodning xizmatlari nihoyatda katta bo‘lgan. O‘sha davrda Xirotda musavvirlik maktabi tengsiz, shuhrati juda baland edi. Xirotda yashab, ijod qilgan ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning mashhur "Xamsa"sig a kiritilgan turli g‘azal va dostonlar uchun ishlangan miniatyuralarda o‘sha davrning bu sohada erishgan yutuqlarini, musavvirlarning qalb ko‘rini, mahoratini anglash mumkin. Darhaqiqat,

¹ Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. –Toshkent: O‘qituvchi, 1997. –B. 25.

miniatyuralardan biz tariximizni, o'zligimizni anglaymiz. Shu sababdan miniatyuralar nafaqat san'at asari, balki o'z davrining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini aks ettiruvchi manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Mavzuning o'rganilishi Mustaqilligimiz sharofati bilan o'zbek xalqi o'zligini taniy boshladi. Uning boy tarixi, madaniyati o'rganila boshlandi. Bugungi kunda O'zbekiston jaxonning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lgani isbotlanmoqda.

Qadimgi nodir qo'lyozmalar ichida bizgacha saqlanib kelgan nafis, mo'ljaz rasmlar alohida o'ziga xos go'zallik, nafosat olamiga ega. Ulardagi yorqin ranglar, nozik chiziqlar va ajoyib mutanosiblik xamon tomoshabinga estetik zavq baqishlaydi. Shuning uchun xam bu rassomlar obidalari jaxonning eng nufizli muzey, kutubxona va majmualarida asrab-avaylanmoqda. Jaxon tasviriy san'ati xazinasida munosib o'rin olgan miniatyuralar Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosidir. U an'anaviy kitobat san'atining tarkibiy qismi bo'lib, qadimgi nodir qo'lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur asarlaridagi ilqor insonparvarlik g'oyalari, oliyjanoblikka bo'lgan intilish, go'zallik to'g'risidagi tasavvurni ifodalashga xam xizmat qilgan. Turli san'atkorlar-xattot, rassom, muzaxxib, muqovasoz va boshqalarning ijodiy hamkorligida yaratilgan nodir qo'lyozmalari o'rta asr madaniy, ijtimoiy xayotini hamda badiiy-estetik qarashlarini o'rganishda qimmatli manbalardan xisoblanadi.

Yaqin va O'rta Sharq madaniy markazlari bo'lmish Bog'dod, Tabriz, Samarqand, Buxoro, Xiro, Sheroz kabi shaharlarda X-XIX asrlar davomida maxsus miniatyura maktablari mavjud bo'lib, ba'zan yuksak darajada rivojlangan, ba'zan esa tanazzulga yuz tutgan. Har bir rassomlik markazida o'ziga xos badiiy-ifodaviy xususiyatlar yuzaga kelishi bilan birga ularning barchasi Sharq miniatyura san'atining ranglar sofligi va yorqinligi, chiziqlarning nafisligi va nozikligi, tasviriy uslubning dekorativ xosiyati bilan xarakterlanadi.

Nodir qo'lyozmalar kitoblari, miniatyura nodir qo'lyozmalar ziynatlari bo'lmish shams, zarvarak, unvon, xoshiya naqshi, lavxa, xotima kabi bezaklar

bilan umumiy uslubiy uyqunlikka ega. Bu kitob ziynatlarning dekorativ xususiyati ular yaratilgan davr dunyoqarashi, tafakkur tarzi bilan bevosita bog'liqdir.

Nafis mo`'jaz rasmlar asosan ilmiy, badiiy va tarixiy asarlarning nodir qo`l yozmalarini bezashga xizmat qilgan. Rassomlar asarlarning yetakchi g'oyalari va asosiy qahramonlari siymolarini ranglar vositasida ifodalaganlar. Shu sababli miniatyura san'ati taraqqiyotiga Sharqning atoqli allomalari Muxammad Ibn Muso al-Xorozimiy, Abu Rayxon Beruniy, mutafakkir va shoirlari Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy-Ganjaviy, Amir Xusrav Dexlaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda mashxur tarixchilar Fazullox Rashiddin, Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqalarning asarlaridagi ilg'or insonparvarlik g'oyalari ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning asosiy taraqqiyot yo`nalishini yetakchi badiiy estetik prinsiplarini shakllanishiga xizmat qilgan.

Qadimgi nodir qo`lyozmalar yuksak qadrlanib kelingan. Shuning uchun xam ularni yig'ish, o`rganish bilan san'at ixlosmandlari uzoq vaqtdan buyon shuq'ullanib keladilar. Ammo miniatyura san'atini chuqur o`rganish asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to`g'ri keladi. Bu sohada yirik chet el olimlaridan F. Martin, Arnold, B.Robinson, B. Grey va boshqalar Sharq miniatyura namunalarini ilmiy taafsivga olish eng yaxshilarni chop ettirish, yetakchi maktablar taraqqiyoti va tarixni o`rganish hamda targ'ib qilishda qator muhim ishlarni oshirdilar. Ammo ularning tadqiqotlarida, rasmlar taxlilida yuzakilik, Sharq xalqlari hayotini yaxshi bilmaslik kabi nuqsonlar uchrab turadi.

O`zbekistonda Sharq miniatyura san'atini ayrim rasmlari qo`lyozmalar bilan tanishish olimlarimizning maqolalaridan boshlangan. Umuman respublikamizda Sharq tasviriy san'ati miniatyurasini o`rganishda yetakchi olimlar xizmati alohida taxsinga sazavor. Sharq miniatyura san'atini respublikamizda o`rganishda, dunyoning eng nufuzli va muzey va kutubxonalaridan qidirib topishda Xamid Sulaymonovning xizmati ko`zga yaqqol tashlanadi. Olim ta'rif bergan «Boburnoma rasmlari» hamda F.Q.Sulaymanova bilan xamkorlikda chiqargan «Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar» nomli albomlarni keng jamoatchilik qizg'in kutib oldi. Shuni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, keyingi vaqtda

respublikamizda Sharq miniatyurasi va kitobat san'atini o'rganuvchilar safi kengayib bormoqda. Ayniqsa bular orasida o'z maqolalari va muxim tadqiqotlari bilan N.Norqulov, I.G.Nizomitdinov, A.Murodov, O.Usmonov, E.M.Ismoilova, F.Q. Sulaymonova va boshqalar alohida ajralib turadilar.

Yuqoridagi olimlarimizdan G.A.Pugachenkova va O.Galerkinalar qalamiga mansub «Миниатюры Средней Азии» kitobida ham biz tanlagan mavzuga oid mulohazalar bitilgan. Unda asosan, Sharq miniatyurasining kelib chiqishi, uning tarixi, an'analarini, Temur va Temuriylar davriga bo'lgan qarashlari haqida so'z yuritilgan. Kitobda Temur va Temuriylar davridagi tendensiyalar haqida, davr ustalari, naqqosh, hattotlari, temuriylar sulolasining san'ati haqida bayon etilgan. Turli xil yozuvchi arboblarning asarlariga ishlangan miniatyuralari bo'yicha ham yozilgan. Eng ko'p izlangan professor olimlarimizdan G.A.Pugachenkovaning «Среднеазиатские миниатюры XVI-XVIII веков в избранных образах» nomli qo'llanmasida asosan illyustrativ materiallarni jamlagan. Bunda ham u O'rta asr miniatyura tarixi asarlari va ulardan qisman tushunchalar bergan. Qay usulda tarixiy shaxsni tasvirlash savoliga birinchi bo'lib E.Polyakova va E.Ismailovanning hamkorligidagi ishi javob beradi². Bu ishlarida mualliflar, tarixiy shaxsning badiiy interpretatsiyasidagi muammosini olib chiqqanlar. Ular bu maqolalarda qo'lyozma va miniatyuralarni ham solishtirib chiqqanlar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda biz quyidagilarni maqsad va vazifalar qilib belgiladik;

- Sharq miniatyura maktablari va ularning qisqacha tarixini o'rganib chiqish;
- Temur va Temuriylar davrida Samarqind va Hirot madaniyatini manbalar asosida tahlil etish;
- Temur va Temuriylar davri tasviriy san'ati va maktablarining rivojlanish jarayonlarini o'rganish;
- Temuriylar davri qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralar va ulardagi Temur obrazining tasvirlanishini tahlil qilish.

² Полякова Е, Исмаилова Э. «Этикетность и реалистичность в некоторых миниатюрах Бехзада и «Зафарнаме» Шарафиддина Али Язди», -Москва, 1992, -С, 56,

- Amir Temur timsoli tarixiy adabiyotlarda va miniatyuralarda qanday echilganligini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning risola, ma'ruza, nutqlarida, xukumat xujjatlarida, diyorimiz hamda xorijiy olimlarning tadqiqotlarida bayon etilgan ijtimoiy tarixiy jarayonlarni, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etishning kontseptual nazariy qoidalari va tamoyillari tashkil qiladi.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shu bilan xarakterlanadiki, ushbu tadqiqot orqali O'zbekiston tarixini, O'zbekiston madaniyat tarixi, Tasviriy va amaliy san'at tarixini to'ldirilishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, san'at, madaniyat kolleji talabalari hamda Ijtimoiy-madaniyat yo'nalishi talabalari uchun manba vazifasini bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. Sharq miniatyura san'ati maktablari va namoyondalari.

1.1. SHarq miniatyura maktablari va ularning qisqacha tarixi

Qadimdan Markaziy Osiyo, Misr, Xitoy, Yaponiya, Xindiston kabi mamlakatlarda tasviriy san'atning ancha qiyin grafik chizmalari paydo bo'lgan. Misr qadimdan tasviriy san'at maktablariga ega bo'lgan davlatlardan biridir. Tasviriy san'at borasida nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga san'at tushunchasining o'zini taxlil qilish orqali yondoshish maqsadga muvofiqdir³. Odamlar tomonidan biron-bir ish, narsa, buyum va xakozalarning moxirlik bilan bajarilishi va maromiga etkazish inson mehnatining san'atkorona bajarilganini bildiradi. Demak, pedagoglarning xam o'z mehnatini puxta, chiroyli, kam-ko'stsiz bajarishi san'atkorlik namunasi bo'lib xisoblanadi. Ta'lim-tarbiya berishda tasviriy san'at tushunchasining o'zi qanday xarakterga ega ekanligi alohida ilmiy pedagogik taxlilni taqozo etadi. Tasviriy san'at-eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. U keng ma'noga ega. O'z o'rnida xaykaltaroshlik, rangtasvir, amaliy san'at va grafika kabi turlarga bo'linadi. Turlari xam o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linib ketadi. Tasviriy san'at tur va janrlarini nazariy jihatdan o'rganish, shuningdek talaba, o'quvchilarga mashg'ulot yoki suhbat davomida ko'rgazmali qurollar orqali o'rgatishning uslubiy asoslari, yo'l-yo'riqlari metodik jihatdan alohida o'ziga xos alifbosiga ega. Tasviriy san'at voqealikni, borliqni shakllar, chiziqlar, ranglar, buyoqlar surtmasi orqali ma'lum bir tekislikda, yuzada, makonda va xokozalar ijodkor (xaykaltarosh va rassom) tomonidan tasvirlanadigan san'atdir. Shuningdek, tasviriy san'at maxobatli va dastgohli san'at ko'rinishlarga ega. Maxobatli deyilganda-hajm jihatdan bir necha barobar katta me'morchilik, me'morlik-yodgorlik san'atiga, shuningdek biron-bir badiiy muhitga mo'ljallangan tasviriy san'at asarlari tushuniladi. Dastgoh bu asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan asarlar tushuniladi, ularni xoxlagan joyga qo'yish, namoyish qilish mumkin bo'ladi.

³ Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatur tarixidan lavhalar. –Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1970. –B. 25.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo'lsin va ularning diniy e'tiqodlari o'ziga xos bo'lganligidan qat'iy nazar biz bilan ularni bog'lab turadigan nozik ko'priklar bor. U xam bo'lsa, ular yaratgan ajoyib san'at namunalari, ularning ma'naviy qadriyatlari, umumiy dunyoqarashlarida insoniyat tafakurining uzviy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazib qolgan tushunchalari va bilimlaridir. Shuning uchun xam zamonaviy rassomni har tomonlama tarbiyalashda, shakllantirishimizda bunday o'tmish meros namunalariga murojat qilib turishimiz, ularni ta'lim jarayonida nafaqat o'tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Eng qadimgi tasviriy san'atdan farqli o'laroq Markaziy Osiyo san'at maktabini Yunon san'ati bilan uyg'unlashgan namunalaridan ko'rish mumkin. Bu san'at maktabini Iskandar izi bo'ylab shakllangan tasviriy san'at maktabi deb atashga asoslar bor. Ma'lumki, miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar qo'shinlari Markaziy Osiyo xududlarini makkorlik va xiyla bilan bosib olishgan. Yunon tili, madaniyati, san'ati dinini targ'ib qilishgan. Natijada yunonlashtirish vujudga kelgan. Mahalliy xalqlar tasviriy va amaliy san'ati bilan yunonlar san'ati o'rtasida uyg'unlashuv boshlangan, natijada yunon san'atiga xos xaykaltaroshlik, devoriy rasmlar, amaliy san'at namunalari paydo bo'lgan. Tasviriy san'at tarixida xalqlarning aloqalarini bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining xam ta'siri katta bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari, ulardagi xar xil asbob-uskuna, qimmatbaxo san'at namunalari orqali o'tishi natijasida tasviriy san'atning uyg'unlashuviga olib kelishi tabiiy bir xol edi. Buyuk ipak yo'li orqali xalqlar o'rtasidagi aloqa tasviriy san'atni nafaqat uyg'unlashuviga ta'siri bo'lib qolmasdan, bir-biridan andoza olib, boyib borishiga sababchi bo'lganini Kushonlar davrini o'rganish jarayonida guvohi bo'lamiz⁴. Tasviriy san'atning ilg'or namunalari qadimgi madaniy taraqqiy etgan o'lkalar So'g'diyona (Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlari), Baqtriya (Surxondaryo, Janubiy-G'arbiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston), Parfiya (Turkmanistonning Ashxobod viloyati, SHimoliy-

⁴ Sharq miniatyura maktablari: maqolalar to'plami. –Toshkent:Adabiyot va san'at. 1989. –B. 184.

G'arbiy Eron), Choch (Sirdaryoning o'rta xavzasi, hozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog'iston) shuningdek Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg'ona hududlarida mavjud bo'lib kelganini ko'ramiz. Qisqasi tasviriy san'at borasida bebaxo asarlarini har bir kishi bilishi lozim.

O'zbekiston xududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaxo namunalarga ega Afrosiyob rangtasvir san'ati, Beshiktepa rangtasvir san'ati, Varaxsha san'ati, kabi o'tmishdagi mashxur rassomlarning ish tajribasi, bilimi shuningdek pedagogik maxoratiga e'tibor qaratmoq lozim va bugungi musavvirlarning shakllanishida san'atimiz merosidan to'g'ri, unumli va ilmiy asosida foydalanishimiz joizdir.

Biz ajdodlarimizning madaniyati va san'ati sirlarini qanchalik o'rganar ekanmiz, ular qoldirilgan izlar aniqroq ko'zga tashalanaveradi, qadimgi manzilgohlar, ular yaratgan madaniy-ma'naviy meroslar haqida batafsil xikoya qilaveradi. Biz ularni yaqindan o'rganib dunyoqarshimizni boyitishimiz va tarixiy dalillar asosida tasviriy san'at metodikasini yanada rivojlantirishga xissamizni qo'shishimiz kerak. Miniatyura san'atiga kelsak, bu san'at avvalo qog'oz bilan bog'liq. Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, 87 xijriy (melodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog'ozsozlik korxonalarini ko'rib xayratga tushgan, deb yozib qoldirgan. Bunday ustaxonalar Xivada, Qo'qonda, Buxoroda, Samarqandda, Toshkentda va boshqa joylarda mavjud edi. Xiva xoni Said Muxammad o'z saroyida bir qancha xattotlarni, mohir naqqoshlar va rassomlarni to'plagan ma'lum bo'lib, u kitobga ixlos qo'ygan kishi edi. Uning katta kutubxonasi bo'lib, shu kutubxonada qo'lyozmalar ko'chirilar va bezatilar edi. Bundan tashqari Buxoro xoni Amir Olimxon saroyida xam mashhur kutubxona bo'lib, unda juda ko'p miqdorda kitoblar to'plangan va hattotlar shug'ullanganlar. Xiva maktabiga mansub Xudoybergan-Devon malakali usta soatsoz bo'lib u bir qancha kitoblarni bezaganligi ma'lum. Buxoroda to'g'ilib o'sgan shoir Axmad Donish (1827-29-1897) shoirlik bilan birga hattotlik ham qilgan. Bir qancha qo'lyozmalarni qayta ko'chirib ularga miniatyuralar ishlagan. Buxoro muzeyida

saqlanayotgan "Lazzati va Niso" kitobiga ishlangan 27 ta miniatyurasi juda ham xarakterlidir. Bu rassom ijodiy faoliyati yaxshi o'rganilmagan, keng kitobxonlar bu rassom bilan yaqindan tanish emas. Uni shoir deb bilishadi. Tasviriy san'atning tarbiyaviy vazifalarini yuksak mutaxassislik tayyorgarligiga ega bo'lgan musavvirlar tomonidan amalga oshirilishi, tarbiyaning yanada mazmunli bo'lishiga turtki bo'ladi. Agar tasviriy san'at orqali tarbiya olib borilmas ekan, bunday ta'lim sinadi va o'z ta'sirini yo'qotadi⁵.

Bunday ta'lim-tarbiyaning moxiyatini ulug' mutaxassislar, olimlar, shoiru yozuvchilar, musavvir-pedogoglardan K.Bekzod, Lutfiy, A.Jomiy, Z.Bobur, D.Samarqandiy, Xondamir, Kamoliddin Attor, A.Yassaviy, Abu Nasr bin Arron, Ulug'bek, X.Abdulxay, Pir Said Ahmad va boshqalar juda yaxshi tushinishgan. Pir Said Ahmad va X.Abdulxay kabi rassomlar Samarqandda yashab ijod etgan va ularni Osiyo miniatyurachilari qatorida eslashimiz mumkin. 1398 yili yaratilgan miniatyuralar "Antigeologiyasi" o'z mazmuniga egadir. Bu kitob Turkiyadagi davlat kutubxonasida saqlanmoqda. Turon (Qashqar)dan topilgan Moniy asarlari Samarqand qog'oziga bitilganligini tadqiqotchilar tomonidan aniqlagan. Moniy qadimning mashhur rassomi bo'lgan. Uning asarlaridan namunalar topilgan "Xududul olam" (olam chegaralari) degan X - asr grafik asarlarida yozilishicha, moniylik (Moniy ta'limoti tarafdorlari) ning Samarqandda obru e'tibori kuchli bo'lib, hijriy 372 (melodiy 682) yilgacha ijodlari orqali katta nufuzga ega bo'lganlar. Arxeologik yozma manbalarga asoslanib biz O'rta Osiyo miniatyurasining tarixi juda qadim-qadimlardan tarqalganini ayta olamiz. O'rta Osiyoda mashhur rassomlar, ustalar, naqqoshlar va haykaltaroshlar o'tganligini tarixiy faktlar asosida isbotlay olamiz va O'rta Osiyoda tasviriy san'at va miniatyura san'ati bo'lmagan degan ba'zi da'volarni asossiz ekanligini isbot qilamiz. Bizga ma'lumki O'rta Osiyoda rivojlangan madaniyat va san'at o'choqlari Arab, Mug'il bosqinchilari tomonidan yakson qilingan. Albatta, Temur va

⁵ Ashrafiy M. Temur va Ulug'bek davri Samarqand miniatyurasi. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1996. – B. 18.

Temuriylar davrida madaniyat juda ravnaq topib gullab yashnagan. XIV-XVI asrlarda Sharq mamlakatlarida, jumladan Oʻrta Osiyoda rivojlangan bu sanʼat XVIII-XIX asrlarga kelib ancha tushkunlik darajasini boshidan kechirdi. Bu davrda yaʼni XVI-XVII asrlarda Boburiylar tomonidan tashkil qilingan tamoyili yangi tasviriy sanʼat maktabida Oʻrta Osiyolik mashhur miniatyurachi rassomlar etakchi rol oʻynaganlar⁶. "Boburiylar" miniatyura maktabiga asos solganlardan biri Mir Said Ali boʻlib, XVI-XVII asr Xind yozma manbalarida yozilishicha, u oʻz zamonasining koʻzga koʻringan mussaviri boʻlgan. Mir Said Ali Termizda tavallud topgan, musavvirlik kasbini otasi, moxir rassom Mir Mansur yoki usta Mansurdan oʻrgangan va tirikchilik taqozasi bilan Hindistonga borib qolgan. Bundan tashqari Hind miniatyura maktabida boshchilik qilgan Oʻrta Osiyolik Muhammad Murod, Muhammad Nodir Samarqandiylar va Farruhbeklarning oʻz yurtini tashlab ketishlariga albatta Oʻrta Osiyo xonliklarining tarqoqligi va madaniyatning uncha qadrlanmasligidan dalolat beradi. Biz XVIII, XIX, XX asr boshlarida Oʻrta Osiyoda bir qancha hattotlik ustaxonalari, moxir musavvir ustalaridan biri Kamoliddin Bexzod toʻgʻrisida gapirar ekanmiz, u ijodiy faoliyatida Osiyoda tengsiz musavvir darajasiga koʻtarila olgan shaxsdir. Bexzod va uning shogirdlari tasviriy sanʼatni ommaviy darajada-jamiyat miqyosida koʻtarishga erishgan musavvirlardir. Ularning gʻoyaviy tarbiyasiga qoʻshgan xissasi esa oʻziga xos tasviriy sanʼat oʻqitishning uslubiy shaklini qoldirganligida boʻlib, hozirgi kunda ham oʻzining baxosini yoʻqotgan emas. U ustoz sifatida oʻz shogirdlarini formalizmdan yiroq tutishga harakat qiladi. Buni isboti esa Bexzodning oʻta qobiliyatli, inson sifatida juda mumin-qobilligi Alisher Navoiy tomonidan juda yuqori baxolangan. Alisher Navoiyning va temuriylarning xomiyligi tufayli tasviriy sanʼat oʻta talabga javob beradigan darajada rivojlangan. Miniatyura maktablari Sharqda juda rivojlangan boʻlib, turli nomlar bilan ataladi. Misol, "Buxoro maktabi", "Boburiylar" miniatyura maktabi, "Sheroz" maktabi, "Asfaxon" maktabi, "Yazd" maktabi, "Bagʻdod" maktabi, "Tabriz" maktabi kabi yirik tasviriy sanʼat markazlari mavjud boʻlgan. Temur va Temuriylar davrida Samarqand

⁶ Abdullayev N. Sanʼat tarixi. –Toshkent: Oʻqituvchi. 1987. –B. 27.

o'zining ravnaq topishi tufayli jahonni va G'arbiy Evropa davlatlarini ham lol qoldirgan edi. Ammo Samarqand miniatyura maktabi to'liq yoritilmagan. Sharqning "Rafaeli" xisoblanmish Kamoliddin Bexzod boshchiligida kamol topgan Xirot maktabining shakllanishida Samarqand miniatyura maktabining tutgan o'rnini muhimdir. Samarqand Temuriylar davrida ilm-fan, san'at ravnaq topgan davlatning poytaxti edi. Xirot maktabi Samarqanddek san'at va madaniyat o'chog'ining ajralmas bir qismi bo'lgan. Samarqandga bostirib kelgan arablar ilk bor qog'ozni Samarqand shahrida ko'rishgan va lol qolishgan. Demak, Samarqand tasviriy san'at maktabi o'ziga xos taxlilni kutib yotibdi. Ayniqsa "Samarqand devoridagi jang" asari (Turkiyada "Yulduz" kutubxonasida) saqlanmoqda⁷. Bu asarlarda Samarqand tasviriy san'at maktabiga xos portretlar aniqligi va tabiat manzarasini yorqinligi bilan miniatyuralarga o'ziga xos uslub baxsh etgan. 1441-1442 yillarda noma'lum musavvirilar tomonidan Mirzo Ulug'bek tasvirining yaratilish davri Xirot maktabidan xam avvalroq Samarqandda keng rivojlanganligining isbotidir. Ayniqsa, "Sohibqironning bo'ladigan jang oldi majlisi" miniatyura asari diqqatiga sazovordir. Bu asarda Temur va uning ayonlarining surati chizilgan. Bu asarga "Xalil Mirzo Shoxrux" deb imzo chekilgan. Boburiy "Jaxongirning" guvohligida "Agarda tasvirda musavvir nomi aniq qilib yozilmaganda edi, bu asarni Kamoliddin Bexzod muyqalamiga mansub deyish mumkin edi". Chunki bu ish uslubiy jihatdan Bexzod ijodiy maktabini eslatadi. Kamoliddin Bexzod faoliyatidan ancha avval yaratilgan bu asarning muallifi Xalil Mirzo Shoxrux o'z navbatida ustoz Bexzodning ustoz bo'lgan. Ammo Jaxongir ta'riflab ketgan bu asar xali chop etilmagan.

Xulosa qilib aytganda Samarqand miniatyura maktabining sobiq talabalari asarlarini keng o'rganish, qidirib topish, shunday maktablar mavjudligini, ishlash usullarini omillashtirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir.

⁷ Usmonov O va Madraximov A. Kamoliddin Behzod. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti., 2000. – B. 18.

1.2. Kamoliddin Bekzot va Xirot maktabi

Kamoliddin Behzod (1455-1535) ning hayotn va ijodi O'rta Osiyoda hukm surgan Temuriylar davri (1370-1506 y) ning so'nggi ellik yiliga, Muhammad Shayboniyxon (1506 y) ning Movarounnahr va Xurosonda, Safaviylar vakili Shoh Ismoil Safaviyning Ozarbayjon, Eron hududlarida, Zahiriddin Muhammad Boburning Qobulda (1505 y) da va Hindistonda (1525 y) ulkan saltanat tuzishi davriga to'g'ri keladi. Amir Temur qurgan ulkan saltanat hududi va markazi keyincha yangi sulolalar tomonidan egallangan bo'lsa-da, o'sha davr mafkurasi islom dini va din asosida paydo bo'lgan tasavvuf namoyandalari dunyoqarashi ijtimoiy hayotning ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil edi⁸.

Ma'lumki, 1370 yili saltanat tepasiga kelgan Amnr Temur o'zining o'ttiz besh yillik hukmronligi davrida davlatning asosiy tayanchi Samarqandni ham siyosiy, ham madaniy jihatdan jahoshshng eng go'zal va obod shahriga aylantirdi, uni mahobatli imoratlar, ajoyib bog'u rog'lar bilan bezadi. Qiyoslash uchun dunyoning Bag'dod, Damashq, Parij kabi mashhur shaharlari nomlarini atrofdagi qishloqlarga berdi. Shahar madaniy hayotinn rivojlantirish uchun esa Sohibqiron o'zi zabt etgan mamlakatlarning olimu ulamolari, san'at va madaniyat namoyandalari, shoirlari, hunarmandlari, me'morlari, quruvchilarini Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Turkistonda va boshqa joylarda olib borilayotgan obodonchilik ishlariga jalb qilgan. Temuriylar davrida mamlakat obodonchiligi uchun barcha davlat a'yonlari o'z imkoni va moddiy quvvati etgancha imoratlar, bog'lar, masjidlar, ko'priklar qurishga intilganlar. Natijada XIV asr oxiriga kelib, Samarqand va Hirot jahonning obod va go'zal shaharlariga aylangan. Bu davrning ijodkorlnk ruhi va mahobatli imoratlardagi etakchi g'oya Shahrisabzda qurilgan Oqsaroy peshtoqiga bitilgan kitoba: «Agar bizning qudratimizga shubhalansangiz, biz yaratgan imoratlarga qarang», mazmuniga to'g'ri keladi. XIV asrda Samarqandga o'sha davr tasavvufining kubraviya, yassaviya va naqshbandiya tariqatini o'rganishga dunyoning barcha shaharlaridan kishilar kelar edi. XIV

⁸ Karomatov H. Amir Temur jahon tarixida tutgan roli. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 30.

asr ikkinchi yarmidagi Samarqandning siyosiy va madaniy hayoti ustod Behzodning Sharafiddin Ali Yalidiyning «Zafarnoma» asariga ishlagan miniatyuralarida oʻzining badiiy aksini topdi. XV asr birinchi yarmini Temuriylar davlati madaniyatining eng yorqin davri, deyish mumkin. Mirzo Ulugʻbek rahbarligida Samarqand yanada obod etilib, ilm-fan, ayniqsa, maxsus rasadxona qurilgach, ilmi nujum-astronomiya markaziga aylanib, natijada mashhur «Ziji jadidi Koʻragoniy», yaʼni 1018 yulduzning astronomik jadvali tuzildi. Rasadxona ichlari burjlar tasviri bilan bezatildi. Mirzo Ulugʻbek «Tarixi arbaʼi ulusi Chingiziy» nomli tarixiy asarni taʼlif qilishda shaxsan ishtirok etdi. Bu davrda Samarqand ilm-fan va maʼrifat oʻchogʻi boʻlib, bu shaharda taʼlim olishni oʻsha davr ziyolilari oʻzlari uchun zarur va shart, deb bilishardi. Shuning uchun boʻlsa kerak, yosh Abdurahmon Jomiy ham taʼlim olish uchun Hirot dan Samarqandga kelgan edi. XV asr boshlarida Xuroson poytaxti Hirot shahri Shohrux Mirzo (1405—1447) davrida, shaxsan shahzoda Mirzo Boysungʻurning fidokorona faoliyati tufayli sanʼatkorlar, olimlar, xattotlar, rassomlar, sozandalar va shoirlar shahriga aylangan edi. Usha davrda tuzilgan «Arzadosht»-«Arznoma»ga binoan saroy kutubxonasida qirqdan ziyod ijodkorlar mavjud boʻlib, ular manbashunoslik sohasida, ayniqsa, «Shohnoma» va Amir Xusravning lirik ijodini, tarixchilar Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abroʻ, shoirlar Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»si, «Kalila va Dimna», «Meʼrojnomasi» kabi asarlarning qoʻlyozmalarini tiklab, ularni betakror rasmlar bilan ziynatlaganlar. Alisher Navoiyning ilm-fan, hunar va sanʼag ahliga qilgan homiylik oʻz samarasini berdiki, Temuriylar davri madaniyati, sanʼati oʻzining eng yuksak choʻqqisiga koʻtarildi.

Oʻzining betakror goʻzal sanʼati bilan nafaqat Sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qoʻilgan zabardast sanʼatkor Kamoliddin Behzod Hirot da 1455 yilda hunarmand-kosib oilasida dunyoga keldi. Manbalarda yozilishicha, uning nomi Behzod boʻlib, Hirot aholisi uni suyub, erkalab Qamoliddin, deb chaqirishgan ekan. Alisher Navoiy uni oʻz maktublaridan birida «ustod Behzod»,

deb ataydi. Behzod ota-onasidan juda erta ajraldi. Uni rassom sifatida Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olib voyaga etkazadi va o'zining Hirotidagi «Nigoristoni» (san'at akademiyasi) da unga naqqoshlik hunarini o'rgata boshlaydi. O'z davrining mashhur rassomi, miniatyurasoz Mirak Naqqosh uyidagi, nigoristoiidagi ijodiy muhit, go'zallik va nafosat Behzodni ham san'at va hunarga havas qo'yishga undadi, kelajakdagi taqdiri uchun ijobiy rol o'ynadi. Bo'lajak rassom gurli ustozlardan tarbiya olgan. Manbalarda Behzod tabrizlik pir Sayid Ahmad shogirdi, deb ham ko'rsatiladi. Pir Sayid esa buxorolik Jahongir shogirdi, buxorodik Jahongir o'z navbatida ustod Gung shogirdi bo'lganligi qayd etiladi⁹.

XV asrdagi Hirot adabiy, badiiy-ilmiy, madaniyat olamida paydo bo'lgan juda ko'p shaxslar singari Behzodning ham ijodiy kamolotida Alisher Navoiy hal qiluvchi rol o'ynagan. Kamoliddin Behzodning buyuk rassom, naqqosh va miniatyurasoz bo'lib etishuvi uchun asosiy omil bu uning ulug' shoir bilan hamkorlik qilib, undan sehrigar san'atning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, mutafakkir dahosidan bahramand bo'la boshlaganligidir. Va yana eng muhimi, bu Behzodning o'zida mavjud bo'lgan etuk iste'dod, o'ta nozik va takrorlanmas aql-idrok, nafis tasviriy san'atga nisbatan juda zo'r shavq hamda ishtiyoq, ulardan tashqari, Behzodning ijodkor sifatida o'ta mehnatsevar, zahmatkash bo'lganligidir.

Ko'pgina Sharq manbalarida Kamoliddin Behzodning mohir san'atkor bo'lib shakllanishida o'sha davrda Hirot muhitidagi birtalay etuk rassomlar, xattotlar, musiqashunoslarni biriktirib turgan Mirak Naqqosh boshliq «mashhur 40 san'atkor» anjumani va o'sha «nigoriston»ning serqirra, juda boy an'analari ham hal qiluvchi rol o'ynagani aytiladi. Kamoliddin Behzodning Alisher Navoiy homiyligida va uning kutubxonasida bo'lganligini yuqorida qayd etilgan shoir maktubi tasdiqlaydi. Ushbu fakt tafsilotini o'sha davr tarixchisi G'iyosiddin Xondamir «Xulosat ul-axbor» asarida shunday ta'kidlaydi: «Ustod Behzod zamonaning komil suratkashlaridan, balki bu ishni nihoyatda kamoliga etkazib,

⁹ Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: O'qituvchi, 1996. –B. 36.

ko‘p vaqtdan beri hidoyat sifatli Amir Alisherning tarbiyati ostida ajoyib ish bilan mashg‘ul bo‘ldi».

Zahiriddin Muhammad Bobur ham Behzod boshqa noyob iste‘dod egalari qatorida Alisher Navoiy tarbiyati va homiyligida kamolga etganini yozadi: «Ustod Behzod Bek (ya‘ni Alisherbek) ning tarbiyat va taqviyati bila, sa‘y va ehtimomi bila, muncha taraqqiy va shuhrat, mundaq mashhur va ma‘ruf bo‘ldi».

1968 yilda Kobulda nashr etilgan «Amir Alisher Navoiy (Foniy)» asarida ta‘kidlanishicha, Behzodning dastlabki ijodi Sulton Husayn Mirzo saroyida va u erdagi juda ko‘p shoirlar, olimlar, san‘atkorlarning ulug‘ homiysi Amir Alisher Navoiy rahnamoligida za qo‘llab-quvvatlashi, yaqindan bergan yordami orqasida gullab-yashnaydi. Yana boshqa bir necha chet el manbalarida ham Alisher Navoiyning Kamoliddin Behzod ijodiga barakali ta‘sir etganligi qayd qilinadi. Masalan, mashhur ingliz sharqshunos olimi Edvard Braunning kitobida bu haqda shunday deyiladi: «Usha zamonda juda katta shuhrat qozongan Behzod va Shoh Muzaffar singari atoqli naqqosh-rassomlar, shubhasiz, Mir Alisher Navoiyning qo‘llab-quvvatlashi natijasida kamolotga erishdilar». Ma‘lumotlarga ko‘ra, Kamoliddin Behzod Hirot muhitida o‘sha davrda yashab ijod etgan boshqa bir buyuk mutafakkir shoir, ulug‘ faylasuf, Alisher Navoiyning ustoz, hammaslagi va do‘sti Abdurahmon Jomiy bilan ham qalin do‘stona munosabatda, hatto uning muridlari qatorida bo‘lgan ekan. Undan tashqari, Behzod o‘sha davrda Hirotidagi «xattotlar qiblasi», buyuk san‘atkor Sulton Ali Mashhadiy bilan ham yaqin hamkorlikda bo‘lgan. «Oriyono» jurnali bu borada quyidagicha ma‘lumot beradi: «Behzod mashhur xushnavis Sulton Ali Mashhadiy bilan zamondosh va do‘st bo‘lgan, ular bir-birlari bilan ijodiy hamkorlik qilardilar. Undan tashqari, Behzodning Hirotidagi buyuk va yuqori martabali shoir, ya‘ni Hazrati Jomiy bilan ham do‘stlik)! Bor¹⁰.

San‘at va nafosatga ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo‘lgan Behzod g‘oyatda mehnatsevarligi, zahmatkashligi tufayli iste‘dodi gullab, tez orada Hirotning mashhur minnatyurasozi bo‘lib taniladi. Alisher Navoiyning maktabdoshi va do‘sti

¹⁰ SHarq miniatyura maktablari. Maqolalar to‘plami. –Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1999. – B. 84.

podshoh Sulton Husayn Mirzo Behzodni o'z huzuriga, capoftra jalb qiladi va unta o'z saroydan joy ajratib, ijodiy ishlar bilan shug'ullanish uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilib beradi. Alishser Navoiy o'zining shaxsiy maktublaridan birida Behzod to'grisida: «Ustodi mushorunilayhin (ya'ni, Kamoliddin Behzodni) Mirzo (Sulton Husayn) tilab oldilar: o'z qoshlarida, bog'da hujra yasatib ish buyuradilar. Yana andoq kishiki, ul kitobatga munosib ish qila olg'ay, yo'q erdi», deb yozganda, nazarimizda, o'sha paytlardagi voqealarni ko'zda tutgan bo'lsa kerak. So'ngra, bir oz vaqt o'tgach, 1487 yilda Kamoliddin Behzod Sulton Husayn Mirzoning shaxsiy farmoni bilan Hirotidagi saltanat kitobxonasiga boshliq etib tayinlanadi. Shunday qilib, Sulton Husayn Mirzonnng farmonida aytilganidek, «musavvirlar peshvosi» degan yuksak nom sohibi Kamoliddin Behzod endi nafaqat Hirot, balki butun Xuroson yurtidagi barcha rassom va naqqoshlarga boshchilik qila boshlaydi. Bu davrda Behzodning iste'dodi nihoyatda barq urib yashnaydi. U o'ziniig eng yaxshi, nodir asarlarini ayni o'sha yillarda yaratadi. Shved san'atshunos olimi F.R.Martin Kamoliddin Behzodning Sulton Husayn Mirzo saroyidagi ijodxonasi va u erda naqqoshning ishlash jarayonini xayolan quyidagicha tasvirleydi: «Sharq quyoshi Behzod uchun qurilgan shinam hujrani nurga g'arq etdi. Bu erda naqqosh pastakkina qiya kursi (pyupiter) ustida engashib ishlardi. Kursining tortma xonachalarida shoh asarlar yaratish uchun zarur bo'lgan hamma narsalar muhayyo. Bunday asarlarni Evropa san'ati ishqibozlari XV asr Italiya va Niderlandiya rassomlarining nodir asarlarini qanday tarzda qidirgan bo'lsalar, shunchalik ishtiyoq bilan qo'lga kiritishga intilishlari shubhasiz. To'g'ri, Behzod evropalik rassomlarnikidek keng va qo'lay ustaxona (studiya) ga ega bo'lmagan. Uning ish joyi oddiygina hujra bo'lib, oq marmar devorlari mohir Sharq xattotlari tomonidan Qur'on kalimalari bilan muayyan etilgan¹¹. Hujrada bo'yra to'shalgan. Burchakda gilam ustida bir necha yostiq. Bu mehmonlar va muxlislar uchun qo'yilgan edi. Hujra orqasi bog', sokin suvli hovuz, undan

¹¹ Norqulov N. Kamoliddin Behzod. –Toshkent: Fan,1964. –B. 36.

nariroq gulzor va daraxtzor. Shaftolilar pishib, ishkodagi oltin tovlangan uzum boshlari siyrak barglari orasidan mo'ralardi. Hujra atrofida atirgullar chamandek ochilib yotardi. Minglab turli-tuman gullarning qiyg'os ochilganidan ularning barglari ko'zga tashlanmas edi. Shu muhitda Behzod o'tirib, nozik mo'yqalami bilan suvrat chizardi. Nozik mo'yqalamni undan ilgari ham, keyin ham, hech bir musavvir Behzodchalik ishlatishga muvaffaq bo'la olmagan. Darhaqiqat shunday. sehrigar mo'yqalamni hali hech kim hech qaerda Behzodchalik mohirona ishlata olmagan! ham Evropa, ham Osiyodagi nafis tasviriy san'at muxlislari Behzod tomonidan yaratilgan go'zal miniatyuralarni ko'rganda hayrat barmog'ini tishlab qoladilar. XV asr bilan XVI asr oralig'ida Hirotdagi Temuriylar saltanati ob'ektiv ichki siyosiy muhitning shiddatli bo'hronlari, toju taxt uchui o'zaro jangu jadallar tufayli asta-sekin emiriladi. Bu davrga kelib Behzodning Hirotdagi eng sevimli kishilaridan biri bo'lmish Abdurahmon Jomiy (1492 yilda), undan so'ng ustoz Alisher Navoiy (1501 yilda) olamdan o'tadi. 1506 yilga kelib esa Xurosondagi Temuriylar saltanatining so'nggi vakillaridan biri Sulton Husayn Mirzo vafot etadi. Podshoh Sulton Husayn o'limidan so'ng o'g'illari Badiuzzamon bilan Muzaffar Mirzo o'rtasidagi janglar Xuroson saltanatinn halokat yoqasiga olib keladi. Usha yillari mamlakatda zulm va istibdodga asoslangan dahshagli feodal jamiyatlariga xos ichki siyosiy kurash shu darajada kuchayib ketadiki, natijada 1507 yilda Muhammad Shayboniyxon Hirot taxtini osonlik bilan ishg'ol etadi.

Bunday dahshatli, beayov to'qnashuvlar, toju-taxt uchun uzluksiz ur-yiqitlar sharoitida ham Kamoliddin Behzod Hirotda qolib, o'z ijodiy ishlarini davom ettiradi. Behzod Hirotda Shayboniyxon saroyida ishlay boshlaydi. Temuriylarning yuksak madaniyatiga hurmat va e'tibor bilan qaragan Shayboniyxon Behzod san'ati oldida lol qolib, uning ijodiy ishlariga deyarlik to'sqinlik qilmaydi, aksincha, mumkin qadar sharoit yaratib berishga harakat qiladi. Behzod uning portretini ayni o'sha yillari chizganligi ehtimoldan xoli emas. Erondagi Safaviylar saltanati bu davrda ancha kuchayib, ichki va siyosiy kurashlar tufayli inqirozga yuz tutgan Xurosondagi Shayboniylar

saltanatiga tahdid solib, 1510 yilda ikki sulola qo‘shini o‘rtasida Marv yonidagi Tohirobod degan joydagi shiddatli jangda Muhammad Shayboniyxon halok bo‘ladi, uning qo‘shini tor-mor etiladi va Hirot Safaviylar qaramog‘iga o‘tadi. Shoh Ismoil Safaviy 1512 yili Hirotidagi bir necha iste’dodli san’atkorlarni, hunarmandlarni o‘zi bilan birga Tabrizga olib ketadi. Hirotidan Tabrizga olib ketilgan «javohir»lar orasidagi eng nodiri va noyobi Kamoliddin Behzod edi. Chunki. Behzod bu paytda butun Sharq ellarida dong‘i ketgan buyuk san’atkor bo‘lib, uni o‘z qaramog‘ida saqlagan saltanat eng boy, qudratli va obro‘-e’tiborli hisoblanardi.

Kamoliddin Behzod san’atini yuksak qadrlagan Ismoil Safaviy naqqoshga ijod qilish uchun Tabrizda barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi. Ma’lumki, Tabrizga Behzod bir guruh iste’dodli shogirdlari bilan kelgan bo‘lib, ular ham Tabrizda Behzodning rahnamoligida o‘zlarining ijodiy ishlarini davom ettiradilar. Usha paytlarda Tabrizda, umuman Eron saltanatida ham, ichki siyosiy ahvol yaxshi emas edi. Tashqaridan usmonli turk sultoni Salim Poshho Eronga ketma-ket tahdid solib turardi. 1514 yilda Eron va Turk qo‘shinlari o‘rtasida Tabrizdan yigirma farsang uzoqlikdagi Choldoron degan keng tekislikda shiddatli jang bo‘lib, mazkur jangda Safaviylar mag‘lubiyatga uchraydi va bir yilcha Tabriz turklar qaramog‘ida bo‘ladi¹².

Umuman, Behzodning Tabrizdagi hayoti Hirotdagidek osoyishtalik bilan o‘tmagan bo‘lnshi kerak. Asli Hirotlik bo‘lgan Behzod uchun Tabriz, bir tomondan begona yurt bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Tabrizda o‘sha kezlarda jangu jadallar, ur-yiqitlar davom etib turgan, undan tashqari rassomning Hirotdagidek Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sulton Ali Mashhadiy kabi ustozlari, yaqin do‘stlari, rahnamolari yo‘q edi. Yana shu narsani ham e’tiborga olishimiz kerakki, Behzod Tabrizda o‘z davriga nisbatan eng mashhur san’atkor bo‘lgani uchun ham, uning joni hamisha notinch, qalbi doimo iztirobda edi. Tabiiyki, Tabrizdagi qattiq ruhiy azoblar, o‘z ona yurtidan yiroqda, g‘urbatda

¹² Sattoriy X. Amir Temur sevgan yurt. –Toshkent: O‘zbekiston. 1996. –B. 13.

hayot kechirishning azobu uqubatlari Behzod ijodida ham aks etmay qolmadi. Masalan Ismoil Safaviy portreti ishlagandan so'ng, uning bir burchagiga «Shikasta qalamai faqir Behzod» deb imzosi chekishi bejiz bo'lmasa kerak. Yoki bo'lmasa, rassom o'zining «Jangi Shutiron» («Tuyalar jangi») nomli mashhur miniatyurasining tagiga «Qalami shikasta, nomurod, faqir Behzod, umri 70 dan oshganda ushbu ishga qo'l urdi» deb, g'am-anduh bilan imzo chekkanini eslaylik.

Darhaqiqat, buyuk san'atkorlar uchun g'urbat, vatandan judolik nihoyatda og'ir va mashaqatli kechgan. Ular ichki kechinmalari, yuraklaridagi dardlari va tug'yonli iztiroblarinn o'zlari yaratgan asarlarida bag'oyat ta'sirli, real va ochiq-oydin qilib tasvirlaganlar.

«Jangi Shutiron», «Tasviri shoh Ismoil Safaviy» asarlarining mazmunidan, ularning chekkalarida «faqir», «nomurod», «Qalami shikasta» kabi sifatlarni o'z nomiga qo'shib imzo chekishidan ulkan va takrorlanmas iste'dod egasi, buyuk qalb sohibi bo'lgan Behzodning yurak qa'ridan sizib chiqayotgan gam-anduhlar naqadar og'ir va musibatli! Bunday asarlardan shu narsa yaqqol sezilib turadiki, Behzod ulkan san'atkor sifatida o'z zamonasining barcha og'ir ijtimoiy dardlarini o'zining xassos qalbida saqlab yurgan. Shuning uchun ham uning asarlari g'oyatda ta'sirchan, hech kimni befarq qoldirmaydigan, qayta takrorlanmas darajada beqiyos va bezavoldir.

Kamoliddin Behzod Tabrizda kechirgan azoblarn oldida chekishadi, nafosat va go'zallik olamiga, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan kuchli muhabbat, ijodga bo'lgan jo'shqin shavq hamda ishtiyoq uni yana ijod sari etakladi. Behzod Tabrizda istiqomat qila turib san'atkor sifatida hayotida yana bir bor jasorat ko'rsatdi. G'urbatda, g'oyat ruhiy azoblarda, ona shahridan olisda turib yana bir nafis tasviriy san'at maktabini bunyod etdi. Hirotdagidek bu erda ham o'z atrofiga iste'dodli rassom, naqqosh va boshqa hunarmandlarni to'pladi, ularga qunt bilan rahnamolik qilib, o'zining sehrigar san'atining sir-asrorlarini o'rgata boshladi. Tabrizda Sulton Muhammad, Oqo Mirak, Mir Mansur Musavvir, Mir Said Ali singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyaladi. Ular esa o'z navbatida Behzod vafotidan so'ng, XVI asrda Tabriz, Qobul, Dehli, Buxoro

kabi Sharqning ulkan shaharlarida yangi sharoit va yangi zamonada o'zlariga xos nafis tasviriy san'at maktablari yaratib, ustozlari Kamoliddin Behzod uslubini muvaffaqiyat bilan rivojlantirdilar. Kamoliddin Behzod shogirdlarining naqqoshlik faoliyatida o'z navbatida Sharq xalqlari, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari madaniyatn muhim rol o'ynaydi.

930 hijriy yilda (1524 milodiy) Tabriz sultoni Shoh Ismoil Safaviy vafot etadi va taxt yosh shahzoda Tahmosib qo'liga o'tadi. Manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Behzod Safaviylar saroyiga juda yaqin, podshoh saltanatidagn eng ishonchli san'atkor bo'lgani uchun ham shahzoda Taxmosibga bolalik paytidanoq miniatyurasozlik ilmidan dars berib, uni ham o'zining sehrgar san'atning sir-asroridan xabardor qilib borgan.

Qamoliddin Bexzod keksayib qolgan bo'lishiga qaramasdan, bu davrda hali betinim ijod bilan shug'ullanib, juda ko'p talantli rassom va naqqoshlarga boshchilik qiladi.

XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixida o'ziga xos madaniy ravnaq va ko'tarinkilik yuz berdi. Bu davrda ilmiy tafakkur sohasida Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchi, adabiy-badiiy ijtimoiy-falsafiy tafakkur sohasida Alisher Navoiy hamda Abdurahmon Jomiy, nafis tasviriy san'at sohasida Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari hisoblangan o'ndan ortiq ajoyib miniatyurasoz, rassom hamda naqqoshlar etishib chiqdi. Bularning barchasi o'sha davr tarixiy va ijtimoiy-siyosiy sharoit tomonidan yuzaga chiqqan, o'z sohalarining etuklik cho'qqisini egallagan, badiiy-estetik hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkur maydonida javlon urgan buyuk siymolar edi. Shuning uchun ham ularning boy, rang-barang ijodlari asrlar osha zamona alg'ov-dalg'ovlaridan eson-omon o'tib, kelajak avlodlarga katta badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy meros bo'lib, jahon madaniyati taraqqiyotida ijobiy rol o'ynab kelayotir¹³.

XV asrning ikkinchi yarmida Sharq Renessansi davrida Hirot ufqidagi ikki

¹³ Temur va Ulug'bek davri tarixi. Bosh muxarrir A.Asqarov. –Toshkent: Qomuslar bosh taxririyyati. 1996. – B. 18.

ulkan yulduz adabiyot va san'at osmonining porloq siymolari Alisher Navoiy bilan Kamoliddin Behzod paydo bo'ldilar.

Hirot adabiy-badiiy va san'at muhitida paydo bo'lgan ustoz va shogird hisoblanmish Alisher Navoiy bilan Kamoliddin Behzod o'rtasidagi ijodiy munosabatlarni yirik rus tarixchisi A.Yu.Yakubovskiy 1946 yili chop etilgan «Alisher Navoiy» to'plamidagi maqolasida kengroq yoritish zarurligini qayd qilgan edi. Bu mavzuga o'zbek olimlari N. Norqulov va F. Sulaymonovalar murojaat qilganiga qaramay, hamon to'la yoritilgan, deyish qiyin. Alohida «Behzod va Navoiy» terma albomining chop etilishi ham ushbu mavzuni yoritish yo'lidagi xayrli qadamlardan biridir, xolos.

Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod bilan bir davrda hamda ulardan keyinroq yashagan barcha tazkiranavislar, tarixchilar bu ikki buyuk zotning o'zaro munosabatlari haqida yozib qoldirganlar. Boburiylar sulolasining asoschisi, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiy bilan Kamoliddin Behzod yashagan davr, Hirot adabiy-ilmiy va badiiy muhitining o'ziga xos xususiyati to'g'risida xarakterli bir ma'lumot yozib qoldirgan: «Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamona edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis iriy shahri mamlu edi. Har kishining kim bir ishga mashg'ulligi bor edi, himmati va g'arazi ul erdikim, ul ishin kamolga etgur. Albatta, XV asrniig ikkinchi yarmida Hirot muhitini juda ko'p tarixnavislar singari Zahiriddin Muhammad Bobur ham Sharq ellarida ilgaridan hukmron bo'lib kelgan an'analarga ko'ra, o'sha davrni Sharq olimlari ta'biri bilan aytganda, «Oltin davr» («asri tilloyi»)ni «Sulton Husayn Mirzo zamonasi deb atagan¹⁴.

Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod o'zaro munosabatlari to'g'risida so'zlashdan avval, ulug' shoirning kitobat san'ati va kitobat ahliga munosabatini oydinlashtirib olsak. Shoirning kitobat to'g'risidagi fikrlari, uning ulkan she'riyati, lirik asarlari, devonlari, doston-masnaviyarlari «Xamsa»

¹⁴Ashrapova I. Kamoliddin Behzod. –Toshkent., 1982. – B. 12.

va «Lisonut-tayr», «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub», «Munshoot»ida o‘z aksini topgan. Biz muxtasar qilib, Alisher Navoiyni kitobat fanining chuqur bilimdoni, kitobat ahli murabbiysi va muqavviysi, deyishimiz mumkin. Birgina «Majolis un-nafois»da deyarli ellikta kitobatga aloqador xattot, naqqosh-rassom va san‘at homiylari to‘g‘risida ma‘lumot berib, shaxsan o‘zn tarbiyatiga olgan Xoja Muhammad, SHeroziy, Mavlono Fazliy, Mavlono Sharbatilarga kitobat san‘ati, shu jumladan naqqoshlikdan tarbiya berganini qayd etadi.

G‘iyosiddin Xondamirning «Xulosat ul-axbor» asarida Navoiyning shaxsiy kutubxonasidagi ijodiy sharoit shunday baholanadi. «Baxtiyor amir (Alisher Navoiy) balog‘at ostli ma‘nolar, fasohat sifatli tasniflarga shu qadar berilib rag‘bat qilardiki, aqlu tasavvur bunga hayron qoladi va tajjublanadi. Binobarin, u iqbol va saodat oftobi tulun qilgandan to shu kunlargacha oliyhimmatini xattotlar hamda xushnavislar tarbiyasiga sarflamoqdalar. Va hamma o‘sha tabaqaning farog‘ati, xotirjamligi oftob sharofatli ko‘nglidan joy olardi».

Tarixchi shoir kutubxonasida jam‘i o‘n to‘rt san‘atkor ijod qilayotganini bayon etib, jumladan, Behzodning nomini ham zikr etadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiy to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon qilar ekan: «Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma‘lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘oy, uni tarbiyatini olganlardan biri sifatida rassom nomini eslatib: Ustod Behzodbekning sa‘y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma‘rif bo‘ldilar,-deb alohida ta‘kidlar ekan, xulosa sifatida: Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo‘lmish bo‘lg‘oy», -deydi. Alisher Navoiyning homiylik faoliyatini tarixchi Mirzo Haydar quyidagicha talqin qiladi: «Mir Alisher taxallusi Navoiydur. U bolaligidan Mirzo Sulton Husayn bilan do‘st edi. Sulton Husayn Mirzo hokimiyat tepasiga kelgach, butun marhamatini Alisher Navoiyga ko‘rsatdi, u esa-olimu ulamolarga».

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni xulosasi sifatida aytish mumkinki, Alisher

Navoiy o‘z davrida qator kitobat san’ati ahliga homiylik qilgan. Ana uni shoir tarbiyasini olgan noyob iste’dodlardan biri, shubhasiz ustod Behzod edi. Shoirning axli fazl va axli hunarga murabbiyligi tasodifiy hol bo‘lmasdan, bu Temuriylar davri an’anasi edi. Jumladan, Shohruxning farzandi Mirzo Boysunqurni eslar ekan, Alisher Navoiy yozadi: «Xattot va naqqosh, sozanda muncha benaznr kishikim, aning tarbiyatidan oroga kirdi, ma’lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo‘lmish bo‘lgoy.

Usha davr ilmiy, adabiy-badiiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur jarayoninng o‘zagi vazifasini sharaf bilan bajara olgan bir buyuk siymo mutafakkir Amir Alisher Navoiy bo‘lgan. Chindan ham podshox Sulton Ho‘sayn Mirzoning yaqin do‘sti, maktabdoshi, maslaxatgo‘yi sifatida hamda buyuk iste’dod, o‘tkir aql-idrok egasi, tadbirkor davlat arbobi sifatida Alisher Navoiyning nufuzi mamlakatda juda katta bo‘lgan. Uning shaxsiy tashabbusi bilan mamlakatda ulkan imoratlar, masjid va madrasalar, xonaqo va inshootlar qad ko‘targan, uning atrofiga shoirlar, olimlar, hunarmand va san’atkorlarni to‘plab, ilm, madaniyat xamda san’atning benihoya ravnaq topishi uchun sharoit yaratib bergan, ularga rahnamolik qilgan. O‘zi ham betinim sermahsul ijod qilib, benazir badiiy-ilmiy asarlar yozib qoldirgan. Shu xususda tarixnavis (Xondamir)ni yozib qoldirgan mana bu satrlari beixtiyor yodga keladi: «Amir Alisherning fazlu xunar tabaqasining aksariga g‘amxo‘rligi zo‘rdir. Tazhib va tasvir ilmu hunarda benuqson va cheksiz bo‘lgan qalam ahllari, shuningdek, zamon naqqoshlari va davr muhandislarining ko‘pi ul hazratning tarbiya va ta’lim vositasi bilan bu xunarlarini o‘rgandilar va atrof olamda monandi yo‘q yaxshilar tengi bo‘ldilar»¹⁵.

XV asrdagi madaniyatimiz, adabiyotimiz va sanatimiz tarixini juda chuqur bilgan, o‘sha davrga oid bir necha qimmatbaxo badiiy va ilmiy-tadqiqot asarlar yozib qoldirgan, yirik sharqshunos olim va buyuk adib Oybek ham o‘zining so‘nggi asarlaridai birida Kamoliddin Behzod haqida, uning Alisher

¹⁵ Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatur tarixidan lavhalar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1970. – B. 14.

Navoiydan ko'p narsalarni o'rganib, uning dahosidan bahramand bo'lganligi to'g'risida quyidagicha ma'lumot bergan edi: «Behzod haqli ravishda Sharqning Rafaeli deb nomlangan ulug' san'atkor rassom. Behzodning rassom qalami haqqatdan tom ma'nosida sehgardir. Bo'sqlarining mayin go'zalligi, jonli oxangi, chiziqslarning yorqin ko'zga tashlangan ma'nosi bilan bu rassom o'z san'atning «qayta kelmas» bir mohiridir. Behzod haqida buyuk tarixchi Xondamirning aytgan bayti to'g'ri, lekin Behzod san'atni ta'riflashda ancha xiradir: «U qalamning ajoyib mahorati bilan jonsiz narsalarga jon bag'ishladi».

Behzod yoshlikda ota-onadan ayrilgan Hiroflik bir etimcha edi. Bu sho'rlik etimcha Sharqning Rafaeliga aylandi. Uning asarlari Evropa, Osiyo, Amerika kutubxonalarining gavharlarini tashkil etdi. Behzod Alisher Navoiy kashf qilgan san'at tarixining yorqin va nodir siymolaridandir. Rasm san'atidan yaxshi xabardor bo'lgan, uni chuqur sevgan shoir Navoiy Behzodning azamat talantini ochgan va gullagan, buni Navoiyning zamondoshlari e'tirof etadilar».

Boshqa miniatyurasoz rassomlar, naqqoshlar hamda san'atkorlar qatori Kamoliddin Behzod ham Hirotda yashagan kezlarda Alisher Navoiy bilan: doim maslahatlashib turgan, yaratgan asarlarini unga ko'rsatib, uning olqish-e'tiboriga sazovor bo'lgan bo'lishi kerak. XVI asrda yashab ijod etgan tarixchi Zaynuddin Vosifiy o'zining «Badoyi ul-vaqoyi» asarida Alisher Navoiy bilan Kamoliddin Behzod orasidagi bir qiziq tarixiy lavhani keltiradi. Bunda Behzodning ajoyib bir asarini Alisher Navoiy o'z atrofidagi do'stlari bilan birga tomosha qilarkanlar. Alisher Navoiy huzuridagi suhbat ahli o'z zavqlari va aqlu idroklariga binoan, Behzod asaridagi hayotiy va real manzara to'g'risida fikr-mulohazalarini bildiradilar, o'zlariga xos hazil-mutoyiba aralash Behzod tomonidan ishlangan tasvirga baho beradilar. Bu lavhani-tasvir oldida turib aytilgan o'ziga xos ajib mushoiranamo bir jo'shqin holat, zukkolik va hozirgi zamon tili bilan aytganda, miniatyura payrovida aytilgan go'zal bir askiya desak, yanglishmagan bo'lamiz. Bu hikoyada Kamoliddin Behzodni iste'dodi raso san'atkor sifatida, ijodiy kuch-qudratiga to'lib-toshgan bag'oyat mohir musavvir

holatida ko‘ramiz. Qamoliddin Behzodning zamondoshlari e‘tirof etganlaridek, Alisher Navoiy Behzodning iste‘dodini ilk daf‘a kashf etgan, uning kamolotga erishuvida alohida xissa qo‘shgan, uni xamisha qo‘llab-quvvatlagan, unga ustozlik qilgan. Behzod zamondoshlari tomonidan (Xondamir, Bobur, Zaynuddin Vosifiy va boshqalar) bu ulkan ikki zotning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida yozib qoldirilgan ma‘lumotlar ham ular orasidagi ustozlik va shogirdlik munosabatlarining naqadar pok va beg‘araz, ijodiy va samimiy bo‘lganligini ochiq-oydin bayon etadi. Bu xususida yuqorida zikr etilgan bir muhim ma‘lumotni qayta eslatib o‘tmoqchimiz. Alisher Navoiy o‘z do‘stlaridan biriga yozgan shaxsiy maktubida («Munshaot», 25-maktub) Kamoliddnn Behzodning podshoh Sulton Husayn Mirzo huzurida alohida hujrada yashab, ijod qila boshlaganini aytib o‘tadi: «Qulluq duodin so‘ngra arzadoni ulkim, inoyat nishoni keldi, inoyat so‘zlari ma‘lum bo‘ldi. Har oyinakim, andoq bo‘lg‘usidur va bu quyoshdin ravshanroqdur. «Firoqnoma» kim, yuborilibdur-tasvir qilulsun deb, ani tasvir qila olur kishi ustod Behzoddur va bu yaqinda ustodi mushorunilayhni Mirzo (Sulton Husayn) tilab oddilar: o‘z qoshlarida bog‘da hujra yasatib ish buyuradurlar. Yana andoq kishikim, ul kitobatga munosib ish qila olg‘ay-yo‘q erdi»¹⁶.

Shunday qilib, Kamoliddin Behzod o‘z zamonasidagi juda ko‘p shoirlar, olimlar, musiqashunoslar, rassomlar, naqqoshlar hamda boshqa san‘atkorlar XV asr Hirot muhitidagi ulug‘ siymo, barcha san‘atkorlarning maslahatgo‘yi va homiysi Amir Alisher Navoiy tarbiyasini olib, ulug‘ rassom-miniatyurasoz bo‘lib etishdi va o‘z minnatdorchiligining namunasi sifatida shoir asarlariga ko‘plab nafis rasmlar ishlab, ularda ham shoir siymosini bir necha marta tasvirladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ta‘biri bilan aytadigan bo‘lsak, «Ustod Behzod Bekning (ya‘ni, Alisherbekning) tarbiyat va tavqiyati bila, sa‘y va ehtnmomi bila, muncha taraqqiy va shuhrat, mundoq mashhur va ma‘ruf bo‘ldi».

¹⁶Norqulov N. Kamoliddin Behzod. –Toshkent: Fan, 1964. – B. 115.

Alisher Navoiyning lirik merosi-she'riyatida rassom-naqqoshga qarata aytgan baytlar juda ko'p. Qolaversa, shoir o'zining «Farhod va Shirin», «Sab'ai sayyor» dostonlarida rassom Moniy, Shopur siymolarini yaratadi. Farhod tarbiyalanishi davomida rassom-naqqoshlikni o'rgangani zikr qilinadi. Axir Alisher Navoiy tomonidan «Zanjirband sher» rasmi yaratilishi ham bejiz emas.

Behzodning serqirra, boy va takrorlanmas ijodi nafis tasviriy san'at asarlariga ishqivoz bo'lgan har qanday kishini befarq qoldirmaydi. Musavvirning taqdiriga undan so'ng yashab ijod etgan barcha ulkan san'atkorlar juda zo'r havas va qiziqish bilan qaraydilar. Zeroki, Behzod yashagan sharafli hayot har kimga ham nasib bo'lavermagan. Va eng muhimi, hech qanday musavvir o'shanday sharoitda yashab o'z davrning ijtimoiy dardlarini Behzodchalik tortmagan bo'lsa kerak. Yoshligidan Alisher Navoiy dunyoqarashlari ta'siri ostida tarbiyalangan Kamoliddin Behzodning boy va takrorlanmas ijodiga ilg'or taraqqiyparvar g'oyalar yo'g'rilib ketgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Sharqning fusunkor musavviri Kamoliddin Behzod asarlari avval boshda etuk va barkamol nafis tasviriy san'at asarlari sifatida juda katta estetik ahamiyatga egadir. Behzod asarlarining ham yuksak estetik maslagini tashkil etadi. Vaholanki, Behzod ijodi boshdan-oyoq o'sha oliy estetik qarashlarga bo'ysundirilgandir.

Kamoliddin Behzod ham Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylarga o'xshab mana shu mavjud borliqdan, jilvakor tabiatdan, moddiy dunyodagi bitmas-tuganmas go'zalliklardan ilhomlangan, o'z asarlariga atrofni o'rab olgan ijtimoiy muhit, hayotiy jarayonlar va nihoyat, tabiat, inson va uning turli-tuman o'zaro munosabatlarini asosiy mavzu qilib olgan. Mana shu hayotiy mavzular, ya'ni tabiat, jamiyat va inson hamda ular orasidagi o'zaro munosabat mavzulari Behzod ijodida, unda mavjud bo'lgan olmos isge'dod orqali «go'zallik qonuniga binoan» juda zo'r mahorat bilan tasvirlangan.

Bizga ma'lumki, Behzod va uning naqqoshlik maktabi namoyandalari tomonidan yuksak pog'onaga ko'tarilgan miniatyura san'atida tabiat, hayvonot olami, ayniqsa insonlar va ular o'rtasidagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarning

juda ko'p tomonlari o'z aksini topgandir. Shuning uchun ham nafis tasviriy san'atning bir turi bo'lmish miniatyura san'ati o'tmishda O'rta va Yaqin Sharq shu jumladan, Movarounnahr xalqlarining turmush sharoitlari, ular yashagan hayotning ba'zi bir tomonlarini bilishda bizga ancha yordam beradi. XV, XVI va undan so'nggi asrlarda iste'dodli shoirlar tomonidan yaratilgan ko'pgina she'riy devonlarda ifodalagan manzaralar, hayotiy voqea-hodisalar mohir musavvirilar tomonidan ishlangan tasvirlarda o'z ifodasini topgan.

Kamoliddin Behzod hamda uning nafis tasviriy san'at maktabi vakillari tomonidan yaratilgan ajoyib miniatyuralarda o'sha davrdagi xalqlarning kiyim-kechagi, o'yinlari, mashg'ulotlaridan tashqari, XIV-XV asrlarda keng tarqalgan muzika asboblari ud, g'ijjak, chang, tanbur, nay, karnay, surnay, nogora, doira singari qadimgi cholg'u asboblari, ularga xos xususiyatlarni uchratamiz¹⁷.

Kamoliddin Behzod nomi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan miniatyura san'atining bir qator ahamiyatlari to'g'risida gap ketganda, ularning juda katta tarixiy ahamiyati ham borligini eslatib o'tmoq lozim. Ayrim hollarda o'tmishda yuz bergan katta-katta muhim tarixiy voqea-hodisalar, ulkan janglar, tarixiy shaxslar go'zal miniatyuralarda o'z aksini topgan bo'ladi. Masalan, Kamoliddin Behzodning nafis miniatyuralaridan birida Samarqanddagi mashhur Bibixonim masjidining qurilish jarayoni zo'r mahorat va haqqoniyat bilan tasvirlangan.

Kamoliddin Behzod miniatyuralarining tarixiy ahamiyati yana shundaki, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulloh Hotifiy kabi olim, shoir va mutafakkirlarning, Sulton Husayn Mirzo, Muhammad Shayboniyxon, shoh Ismoil Safaviy, shoh Tahmosib singari tarixiy shaxslarning haqiqiy timsollari faqat o'sha miniatyuralar orqali bizning zamonamizgacha etib keldi.

Behzod nomi bilan bog'liq bo'lgan XV-XVI asrlardagi miniatyura san'ati juda katta ijtimoiy ahamiyat-xalqchilligi va ijtimoiy ahamiyati yana shundaki, u Bibixonim masjidining salobatlipshi o'z miniatyuralarida tasvirlashga, harakat qilmagan, balki insonparvar naqqosh sifatida uni o'sha buyuk inshootni bunyod

¹⁷ Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 18.

etgan hunarmandkorlarning og‘ir, mashaqqatli va sharaflı mehnat jarayoninn tasvirlagan.

Dunyoviylik o‘rta asrlar taraqqiyparvar yo‘nalishidagi nafis tasviriy sanatning asosiy negizi sifatida Behzodning boy va rang-barang ijodida hamda uning shogirdlari bo‘lmish Mir Said Ali bilan ustod Muhammadiy ijodlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sharq xalqlari, ayniqsa, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati tarixining yirik tadqiqotchisi, mashhur sharqshunos olim A.Yu. Yakubovskiy Behzod ijodining xalqchilik tomonlariga ahamiyat berib, shunday yozgan edi: «U (Behzod) nafaqat go‘zal portretlar (uning Sulton Husayn portretini eslaylik), nafaqat feodal saroylari hayotini tasvirlovchi muloqotlar manzarasi («Zafarnoma» qo‘lyozmasidagi «Temur bog‘ida muloqotini eslaylik), nafaqat dahshatli jangu jadallar manzarasi, balki xalq hayoti, uning mehnati mavzularini ham o‘ta zo‘r mahorat bilan tasvirlangan».

Kamoliddin Behzod Sharqning zabardast, fusunkor musavviri oddiy mehnatkashlar hayotining tasviriga alohida ahamiyat beradi, xalq turmushidan olingan hayotiy mavzularni ham shavqqa to‘lib, ishtiyoq bilan, mayda tafsilotlarigacha tasvirlaydi. Behzod asarlaridagi hayotiy mavzular va ularning mohirona talqini O‘rta va Yaqin Sharqda, XIV-XVI asrlarda bunyod etilgan miniatyura san‘ati dunyoviy, xalqchil san‘at bo‘lib, uning muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi, ularni jahon san‘ati noyob durdonalari sifatidagi juda katta ma‘naviy qiymatini va ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu san‘at madaniyatimiz tarixi bilan shug‘ullanuvchi sharqshunos hamda san‘atshunoslar tomonidan chuqur va atroflicha tadqiq etishga loyiq.

II BOB. Temur va Temuriylar davrida Samarqand va Hirot madaniyati

2.1. Temur va Temuriylar davri tasviriy san'ati va maktablarining rivojlanishi.

Amir Temur davrida ham miniatyura bilan bezatilgan qo'lyozmalarni tor doiradagi zodagonlar sevib mutolaa qilishgan. Tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxs, ulkan bunyodkor, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lmish Amir Temur davri butun bir tarix zarvaraqlarida eng gullagan davr hisoblanadi. U o'zidan kelajak avlodga bitmas-tuganmas me'ros qoldirdi. Qaerni bosib olmasin, ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Masalan uning davrida Samarqand, Kesh, SHosh kabi shaxarlarimizda osmono'par binolar qad ko'tardi, bir qancha bog'u-rog'lar bunyod etdi. Uning davrida me'morchilik, amaliy san'at, devoriy surat, qo'lyozma san'ati, miniatyura va boshqa ko'pgina san'at turlari keng rivojlangan¹⁸.

Amir Temur va Temuriylar davri o'zining devoriy suratlari va miniatyuralari bilan tanilgan bo'lib, o'zini islomgacha bulgan ildizi va an'anasiga ega. Qo'lyozma kitobidagi miniatyura tasvirlari-devoriy suratdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. SHuning uchun Temur va Temuriylar davri qo'lyozma miniatyuralariga o'tishdan avval devoriy sur'atlarga murojat qilamiz.

Ilk devoriy surat fragmentlari ilk antik shaxarchalarida ochilgan. (Tuproq qal'a saroyi, I-II asrlardagi Xolchayonda, Dalvarzintepadagi yashash uylari ibodatxonalarda, O'zbekistonning janubidagi monastirlarda, Qadimgi Baqtriya erlarida topilgan). SHuningdek, ilk O'rta asr shaxarchalari Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob, SHaxriston devorlarida yuzlab madaniy va turar joylari VI-VIII asrlarda ko'pgina syujetli tasvirlari Markaziy Osiyoda tasvir san'atning chuqur an'analari bo'lganligidan guvohlik beradi.

Syujetlar tematikasining turliligi va boyligi katta hayrat tug'diradi. Unda xalqning ertak-folklor, matal, epik, mifologik boy dunyosi ijodning nozik nafis san'ati boy bo'lganligida dalolat beradi .

¹⁸ Ashrapova I. Kamoliddin Behzod. –Toshkent., 1982. – B. 65.

Islomgacha bo'lgan devoriy saratlarning ishlangan syujetlari keyinchalik o'z aksini kitob miniatyurasida topdi. Bular mukammal ishlangan; mayxo'rlikka bilimdonlar tashrifi, jang va ritsarlar, boy karvonlar, to'y saxnalari, ko'mish marosimlari, ov qushlari va itlari qatnashgan ov mavzusi, narda o'yini va arfa, lyutna nay musiqachilarinig qatnashuvi sahnalaridir. O'sha davr devoriy suratlarida maxluqlar (ajdar, yalmog'iz) bilan bo'lgan qaxramonona jang sahnalari ifoda etilgan. Iloh yoki erlik hukmdorning timsollari sahnada markaziy o'rinni egallagan. Bir qator an'anaviy sxemalar ishlab chiqilgan. Unda turli detallar ifodalangan holda moslashtirilgan.

Ko'p topilgan qo'llanmalar, sxemalar, uslubiy chizgilar, kompozitsiyalar bir necha asrlardan so'ng kitob miniatyurasiga kirib keldi. Antik davrning maxobatli devoriy suratlari va ilk o'rta asr kitob miniatyurasi orasidagi vaqt davomida amaliy san'at buyumlarida qisman tasviriy motivlar qo'llanilgan.

X-XII asrlarda O'rta Sharq islomni qat'iy qabul qilish davrida devoriy surat tematikasi hali butunlay esdan chiqmagan bo'lgan. Ayniqsa, saroy hayotida, lekin interer devorlarining syujetli kartinalari o'rni ornametal va epigrafik bezaklar bilan yopilib, qat'iylik yoki ko'prangli dabdabani ko'rsatgan¹⁹.

Amir Temur me'moriy inshootlarning asosiy buyurtmachisi bo'lgan. Ibn Arabshox, YAzdiy, Bobur Hirot saroyida Bog'i-SHamol, Dilkusho kabi Samarqand saroyini devoriy suratlarini o'ziga xos ajoyibligini katta hayajon bilan aytib o'tganlar. Bu inshootlarda tashriflar-majlislar, sohibqironning kulib turgan yoki suronli portretlari, uning o'g'illari, nabiralari, yurishlari va shaharni, qal'alarni qamal qilishlar, xukumdorning tantanavor bayramlari, ovlar, malikalar ishtirokidagi sahnalar tasvirlangan.

Amir Temur fikricha, mahobatli rang tasvir o'zida mujassamlagan turli xil janrlari: portret, batal, saroy hayoti, o'ziga hos voqe'likni tasvirlashi kerak bo'lgan. Hukumdor boshqaruvi davridagi asosiy rassom ustalar Pir Ahmad Bog'i SHamoliy bo'lib, Bog'i SHamol saroyi devoriy suratlarini yaratgan bo'lishi ham mumkin.

¹⁹ Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatyura tarixidan lavhalar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 1970. – B. 25.

Shirin beka og‘o, Bibi xonim, Tuman og‘o maqbaralarida ham peyzaj tasvirlaridan qoldiqlar saqlanib qolgan. Kompozitsiyasi bo‘yicha u vertikal panno qilib ishlangan.

Qo‘lyozma kitoblaridagi miniatyura tasvirlari devoriy suratdan keyingi o‘rinda turadi. Bilimga, kitobga mehri baland bo‘lgan Temur tinmay turli mamlakatlardan qo‘lyozma kitoblarni olib kelgan, buyurtma qildirgan. Shunday boy, afsonaviy kutubxona tashkil etgan. Yazdiyning bergan ma‘lumotlariga qaraganda Amir Temurning muhim kunstkamera-noyob buyumlar saqlanadigan joyi bo‘lgan. Unda Arjang Manining mashhur albomidagi haqiqiy original suratlari bo‘lgan. Bu suratda qadimgi Manixey tasviri o‘rin olgan bo‘lib, XV asr Samarqand rassomlari tanishishi mumkin bo‘lgan. O‘rta Sharqda “Arjang” tasvirlari tasviriy san‘atning buyuk timsoli hisoblangan.

Amir Temur hukumronligi davrida kitob illyustratsiyasi san‘ati uzoq davlatlargacha cho‘zilgan. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Samarqand, Xirotda, Bag‘dod, Sheroz, Tabriz, Yazdiy kabi shaharlarda rassomlik markazlari bo‘lgan. Bu jarayonda eng qiyin davr XIII asr bo‘lgan, chunki mo‘g‘ullar bosqini nafaqat miniatyura rivojiga, balki barcha madaniyatga ta‘sir etgan. Ko‘pgina arboblardir, shuningdek rassomlar ham Movaraunnaxr va Xurosondan Eronning janubiga qochib ketganlar. U erda ular o‘z xunarlarini va san‘atlarini davom ettirganlar. XIV asrgacha miniatyura maktablarining orasidagi muloqot epizodik bo‘lib, shuningdek chegaralangan ham bo‘lgan. Deyarli yuz yillik mo‘g‘ul istibdodidan so‘ng Temuriylar XIV asrning oxirgi choragida dunyodagi eng qudratli saltanatni bunyod etib, ulkan markazlashgan davlatni tuzdi. Markazlashgan Temuriylar davlatining birlashuvidan so‘ng Samarqand, Xirotda, Sheroz, Bag‘dod maktablari orasidagi aloqa XV asr boshlariga borib mustahkamlanib, faollashgan. Temuriylar davri O‘rta Osiyoning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniyati, ilm-fani, adabiyoti, san‘ati taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘ldi. Samarqandda yashab ijod etgan Rumi, Mirzo Ulug‘bek, J.Koshiy va Ali Qushchilarning astronomiya fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini butun dunyo tan oldi. Jahonga mashhur tarixchilardan – Nizomiddin Shomiy, Sh.A.Yazdiy, A.Samarqandiy, Hofizi Abro‘,

Muhammad Mirxond kabi olimlarning asarlari hali xamon mutaxassislar uchun mo‘tabar manba, tunganmas xazinadir. Badiiy adabiyot sohasidagi Sakkokiy, Lutfiy, A.Jomiy, A.Navoiy, X.V.Koshifiylarning asarlari esa hozirgi kungacha yuksak mahorat mahsul bo‘lib hisoblanadi²⁰.

O‘sha davr boshida Mir Ali Tabriziy tomonidan yaratilgan eng go‘zal nastaliq yozuvi etakchi o‘rinni egallab, bu yozuvni puxta egallagan Jafar va Azhar Boysunquriy, Abdurahim Xorazmiy, S.A.Mashhadiy, M.A.Heraviy kabi xattotlar, Ustod Abdulxay, Mansur, G‘iyosiddin Naqqosh, Pir Ahmad Bog‘ishamoliy, Mirak Naqqosh, SHoh Muzaffar, Qosim Ali Chehrakusho, Yuriy Muzahhib, Jamoliddin Yusuf kabi miniatyurasozlar o‘z sohalarida ustod san‘atkorlar bo‘lib, Samarqand va Hirot maktablarining shuhratini dunyoga tanitganlar²¹.

Ilm-fan, mumtoz adabiyotning tarkibiy qismi bo‘lmish kitobot san‘ati-xattotlik, lavvohlik, jadvalkashlik, muzahhiblik, muqovasozlik va rassomchilik ham o‘zining yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarildi. Ustalar migratsiyasi, yangi poytaxtga joylashuvi XV-XVI asrlarda g‘oyatda ulug‘ va gullagan miniatyura rivojiga olib keldi. Shoxruxning o‘g‘li Ibrohim Sulton Sherozda ochgan rassomlik ustaxonasidagi ishlagan Bog‘dod va Tabriz rassomlari ishlashi natijasida jiddiy yassilikka Sheroz maktabi XIV asr oxirida Tabriz-bog‘dod maktablarini ta‘sirini ifoda eta boshladi. Sherozda bajarilgan Boysung‘ur Xirot maktabi uchun ishlangan “She‘riyat antologiya” si 1420 yildan boshlab unda bog‘dod uslubi va yassilik va kam figuralilik sheroz an‘anaviy maktab qo‘llanmalari ishtirok etgan. Amir Temur davri miniatyuristlarning shakllanishidagi kuchli maktab bu Samarqandda bo‘lgan. Xoja Ahrorning yashirin xujjatlarida 1489 yildan (barcha soxadagi) rassomlar ko‘chalari bitilgan – Quyi Naqqashon axamiyatlidir. XV asr qo‘lyozmalari qatorida ko‘pgina qisman ko‘p figurali portret-kartinalar saqlanib kelgan. Ular ilk Samarqand miniatyuralarining originallaridan kopiyalar bo‘lgan. Ularda shuningdek Temur tasvirini ham uchratish mumkin. Asarda Temur tabiat qo‘ynida,

²⁰Oyidinov N. O‘zbekiston tasviriy san‘ati tarixidan lavhalar. –Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – B. 15

²¹ Usmonov O. Kamoliddin Bexzod. –Toshkent., 2000. –B. 46.

bayramda va bir qancha variantlarda tasvirlangan. XV asr boshida Samarqandda ishlangan miniatyurala batal jangrida bo‘lib “Shahar devori yonidagi jang”, “Tog‘dagi Shox ovi” jumlasidan. “Jang ” manzarasi temuriylarga xos (Istambul, Yulduz kutubxonasi). Unda qal‘a devori balanda arrasimon parapet, minora bilan tasvirlangan bo‘lib, kuchli muloxazani ko‘rsatgan.

Ulug‘bek hukumronligi davrida (1397-1447yy) qiziqarli illyustratsiyalangan qo‘lyozmalar vujudga kelgan. Ular orasida bizgacha etib kelganlari :

-Abduraxmon So‘fiyning astronomik traktati “Suvar al-kavakib as-Sabita” (Parij, Milliy kutubxonasi);

- Ulug‘bekning burgut oviga bo‘lgan sayohati bilan bog‘liq alohida miniatyura qo‘lyozmasi. Yuqorida-karkasli ayvonda tasvirlanuvchining nomi ko‘rsatib o‘tilgan. “Ulug‘ sulton, Ulug‘bek Ko‘ragon, uning boshqaruvini ollox o‘zi qo‘llasin” deya bitilgan (Topkapi Saroy, Istambul). - Nizomiyning “Hamsa”si va unga ishlangan XVIIIta miniatyura (Topkapi Saray, Istambul,N-786).

Miniatyura tasviridagi ajoyib tarixiy noyob xujjatlar qatorida xukumdor Ulug‘bek va uning oilasini burgut ovida tasvirlanishidir. Miniatyurada etiketlilik hukum suradi. Bu miniatyura ko‘rinishidan diptix bo‘lishi mumkin, lekin uning chap qismi saqlanib qolinmagan. Nizomiyning “Hamsa” sini o‘rganib chiqqan olimlar uni aynan Ulug‘bek Ko‘ragon davriga tegishligini asrdagi medalonidan bildirganlar. Unga ishlangan miniatyurani sinchiklab ko‘rganlarida miniatyuralardan 14 tasi Sulton aliga , qolgan 14 tasi esa nomalum rassomga tegishli bo‘lib chiqdi.

1420 yildan boshlab Xirot rassomlik markazi oldinga chiqa boshladi. Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida Boysung‘urning davrini yoritadi: “Uning mehribonchiligidan shunchalik ko‘ xattotlar, rassomlar, musiqachilar va qo‘shiqchilar ko‘payib ketdiki, boshqa xukumdor davrida shuncha bo‘lganmikan, aniqmas”.

Boshqa shaharlardan Hirotga ko‘pgina rassomlar, xattotlar va ornamentalistlar kelishgan. Boysung‘urning buyro‘g‘iga ko‘ra Tabrizdan Sayid Ahmad NaqqoshXoja musavvir va muqavasoiz Kavamiddin Tabriziyini olib

kelishgan. Bu yangi ish ustaxonasiga Mavlono Faridid din Jafar Tabriziyini bosh qilishdi. Vaqti-vaqti bilan bu erda turli maktab ustalarining birlashishi jarayonida rassomlik maktabining yangi Xirot uslubi vujudga keldi. Bog‘dod va Sheroz maktabining ta’siri – tabiat obrazini shoriona umumlashtirdi.

XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr xirot miniatyurasida bir qator syujetlar ishlab chiqildi. Bular sevishganlar, xukmdor qabulida, saroy tasvirining kompozitsion tasviri, ov sahnasi, jang kabi mavzulardir. Bu vaqtgacha Xirot maktabi me’moriy tasvirlarni aniq geometrik, boy va turli xil ornamentlar va detallar bilan ishlay boshlashdi. Koloritda esa, fonda och va nafis ranglardan, personajlar kiyimlarini esa-iliq ranglarda ya’ni qizil va ko‘k ranglarning turli tonlarida ifodalanishgan. Obraz va syujetlarning emotsional harakati paydo bo‘la boshlandi. Masalan, shundan Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asariga miniatyuralar ishlandi.

Lekin, temuriylar miniatyurasining gullagan davri Hirotida bu sulolaning so‘nggi hukmdori Sulton Husayn Boyqaro vaqtida(1469-1506yy) amalga oshadi, shuningdek uning vaziri buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiyning ham hissasi katta bo‘lgan. U iste’dodli san’at shinavandalarini–rassomlar, musiqachilar, qo‘shiqchilar, xattotlarning homiysi bo‘lgan. Z.M.Boburning yozishicha: “Sulton Husayn Mirzo davri bu eng yaxshi vaqt bo‘lgan. Xuroson ayniqsa Hirot uning hukmdorligi vaqtida olimlar va bir qancha allomalar bilan to‘la bo‘lgan. Har bir inson biror-bir hunar bilan shug‘ullangan, ularning mana shu ishni tugallab, maromiga etkazish kerak degan maqsadi va hoxishlari bo‘lgan”²².

XV asr ikkinchi yarmida Xirot miniatyura maktabi davom etib yanayam yuqori cho‘qqilarga erishib bordi. Bu vaqtda Hirotida iste’dodli miniatyuristlardan –Mirak Naqqosh, Behzod, Muhammad naqqosh, Qosim Ali va boshqalar faoliyat yuritganlar. Ularga ko‘pincha Nizomiyning Husrav Dehlaviyning, Navoiyning “Hamsa”lari va shuningdek Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlariga buyurtmalar berishardi.

Temuriylar davlatidagi barcha miniatyura maktablarining tematikaga

²² Амир Тему́р в мировой истории. –S. 168.

umumgʻoyaviy yoʻnalishi ikki voqeaga tarixan mos tushgan. Ular Amir Temurning jahon sahnasiga chiqishi va islom dunyosida sufizm targʻiboti singari komil insonni tarbiyalash yoʻlini izlashda muhim shakllanishning tugashi bilan bogʻliq. Temuriylar davri boshidan koʻp falokatlarni oʻtkazganki, nihoyat davlatni barpo etishda eng aktual masala bu hayotni barcha ijtimoiy tomonlarini ham hisobga olgan holda sufizm gʻoyalari bilan yonma-yon turib, islom anʼanalariga rioya qilish boʻlgan.

2.2. Temur davri qoʻlyozmalariga ishlangan miniatyuralar va ulardagi Temur obrazining tasvirlanishi.

Tarixiy janrning vujudga kelishi va turli xil erlik maktablarning paydo boʻlishi kitob miniatyurasining yuqori choʻqqisidir. Oʻrta asrlarda (XIV-XVIIa) musulmon davlatlarida kitob miniatyurasi oʻz aksini topgan va eng keng tarqalgan sanʼat turi boʻlgan. Hamma qoʻlyozmalarni ham tasvir bilan bezashmagan. Asosan badiiy adabiyotni yaʼnisheʼriy toʻplamlarni mumtoz adabiyot (Firdavsiyning «Shoxnoma», Nizomiy, Navoiy, Dehlaviylarning «Xamsa»lari) ni bezatishgan. Shular qatorida eng koʻp bezatilgan asarlar bu tarixiy qoʻlyozmalardir. Bular bir tomondan tarixiy rolni ijro etsa, ikkinchi tomondan esa adabiy rolni oʻynaydi.

Musulmon adabiyotidagi barcha janrlarda tarixiy janr, mumtoz adabiyotdan keyingi eng qiziqarlisi hisoblanadi.

Shuningdek tarixiy asarlar, tarixning muhim voqealaridan guvohlik beradi va sharq miniatyurasi, uning ideologik asosida bizning qarashimizni har tamonlama boyitadigan ajoyib illyustratsiyalar taqdim etadi.

Bunday tarixiy asarlarga Hotifiyning «Temurnoma» asari, Firdavsiyning «Shoxnoma»si, Z.M. «Boburnoma»si, Shomiy, «Zafarnoma»si kabi koʻplab qoʻlyozmalarni misol qilish mumkin. Qimmatbaxo qoʻlyozmalar asosan shox kutubxonasida buyurtma qilingan holda bajarilgan. Shuning uchun ham ular nafaqat oʻz davrida balki, hozirgi davrda ham noyob manbalardan hisoblanadi. Amir Temurning tashqi qiyofasi XIV-XV asr miniatyurlarida va keyingi asrlarda ham oʻrin olgan. U naturadan olingan portretlar emas, balki asardan olingan rassomning miniatyura anʼanalariga rioya qilib vujudga keltirgan shaxsidir. U

haqidagi asar esa tasvirlanuvchining individual chizgilari bir qancha umumiy tipi aks etgan manbadir. Misol uchun: “Temur qo‘shinining Seistonni olishi”, “To‘xtamish armiyasini Temur tomonidan tor-mor qilinishi”, “Temurni Hindistonga yurishi”, “Temurni sulton Boyazidni asr olishi” kabi miniatyuralarda sarkarda Amir Temur hayotidagi epizodlar birinchi planda ko‘rsatilgan. Miniatyuradan maishiy harakterli syujetlar ham o‘rin olgan. Ularga “Temur va Hamadoniy baxsi”, “Temur qabulida”, “Temurni Dilshod og‘o bilan uchrashuvi”, “Temur Samarqand atrofida” kabi miniatyura asarlari kiradi. Yazdiyning “Zafarnoma ” asariga ishlangan miniatyuralardan Temur obrazi, uning keksaygan vaqtida ko‘rgan yoki bilgan odamlardan biri chizgan portretlaridan bo‘lishi mumkin. Chunki miniatyuralardagi ko‘rinishi ham shuni izohlaydi²³.

Bundan tashqari zamonamizda 1945 yili rus olimi Gerasimovning Temur portretini ishlab chiqishi ham bir qancha shov-shuvlarga sabab bo‘lgan. Osiyolik buyuk hukumdor Temur obrazi dunyoda katta qiziqish uyg‘otgan. Temur tarixining ayrim tomonlari rus tarixi bilan ham bog‘liqdir. Shuning uchun biz uning janglari muhokamasidan o‘tib keta olmaymiz. Uning rekonstruksiya bo‘yicha analiz olib borilganida, tabiiyki unga nisbatan an‘anaviy qarashlar farq qildi. Shuningdek, o‘quvchi ko‘rganidek, tarixchilarda Temur bilan bo‘lgan muammolar avval ham vujudga kelgan. Masalan mashxur antropolog va arxeolog M.M.Gerasimov Temurning kalla suyagidan uning qiyofasini ochib berishda an‘anaviy qarashlaridagi izlanishlari bilan solishtirishda juda qiyin vaziyatlarga duch kelgan. Uning bu ishi judayam qiziq bo‘lganligi uchun ham biz uning qiyofasini Gerasimovning ishidan boshlaymiz. Bunda M.M.Gerasimovning “Temur portreti” nomli maqolisida u Temur portretini uning kalla suyagiga qarab tiklagan. Temurning haykalli qiyofasini yaralishi olimga katta shon-shuxrat olib keldi.

Bizga ma‘lumki, 1941 yilda Samarqanddagi Go‘ri Amir mavzoleyidagi qazilma ishlarida Temur tobuti ochildi. Ochishda o‘zgacha ko‘rinishdagi maishiy

²³ Samarqandiy.A. Matlai sa‘dayn va majmai baxrayn. –Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 63.

va identik ishlangan “yog‘och tobut”, tobutning usti to‘q rangli va kumush zar bilan tikilgan parcha matosi bilan yopilgan holda topilgan. Tarixiy ma’lumotlar bo‘yicha Temur 1405 yil vafot etgan Gerasimovning ma’lumoticha, ekspeditsiyaning asosiy maqsadi, - “Temurning haqiqiy sag‘anasini topish bo‘lgan. Qabrdagi arab tilidagi yozuvlari buni aynan Temurligi haqida xech qanday ma’lumot bermagan. Faqatgina kalla suyagining o‘zigina haqiqiy Temurligini isbotlashi mumkin” deb aytgan. Sharq xalqi XV asrdagi ulug‘ hukumdor haqidagi minglab afsona va haqiqatlarni sir tutib kelganlar. Birgina uning Oqsoq Temur degan nomi nafaqat O‘rta Osiyoni balki, Hitoy va Hindistonni ham larzaga keltirgan. Uning buyuk va ertakonamo boyligi va ovozasini hattoki Evropagacha etib borgan. Uning biografiyasida qilgan ishlari va janglari haqida tinmay yozishgan. Afsuski, uning qiyofasi, tashqi ko‘rinishi haqida berilgan ma’lumotlar judayam kam va bir-biriga qarama-qarshi hamdir. Birgina Ibn Arabshoh Temurni baland bo‘yli, katta kallali, yirik elkali qiyofasi haqida ma’lumot bergan. Shuningdek Temur kuchli, baquvvat bo‘lganligini, uzun soqol va o‘ng oyoq-qo‘li yaxshi ishlamasligini (cho‘loq), past ovozda gapirishini ham aytib o‘tgan. Shuningdek uning tanasi oq bo‘lganligini ham o‘z asarida bayon etgan. Qoldirilgan tarixiy ma’lumotlarning bir-biriga zidligini Gerasimov o‘z ishi orqali ko‘rsatib o‘tgan. Ya’ni, bir tomondan olganda. Barchaga mashxur Temur mo‘g‘ul bo‘lgan. Boshqa tomondan esa, ko‘p sonli o‘rta asr manbalarida ko‘rsatilishicha, Temur xindevropalik ko‘rinishda bo‘lgan. Hozirgi kunda bunga ishonishmaydi. Bu yolg‘on berilgan manba deb aytishadi²⁴.

Mixail Gerasimov mana shu ma’lumotlarga tayangan holda oldida turgan kalla suyaklaridan Temurning haykaltaroshlik portretini yarata boshladi. Bu haqiqiy – evropalik. Lekin hammaga ma’lumki, Temur-mo‘g‘ul bo‘lgan. Agar M. Gerasimov Temurni mo‘g‘ul emas evropalik tipida bo‘lganligini ommaga ayon etsa, avvalom bor o‘ziga ziyon bo‘ladi. Unga olimlar jamoasi-uning uslubi noto‘g‘riligini, metodikasi ilmiy emasligi, mo‘g‘ul tipini evropalikka aylantirib

²⁴ Sattoriy X. Amir Temur sevgan yurt. Badialar. –Toshkent: O‘zbekiston. 1996. –B. 56.

qo‘yganligini aytishadi. Keyin esa janjal, u o‘zining ilmiy reputatsiyasidan ayriladi va voqealar bo‘ladi. Mixail Gerasimov natijani qanday yo‘l bilan aytishga boshi qotdi. Yagona yo‘li esa, bor narsani qanday qilib bo‘lsa ham mo‘g‘ulga o‘xshatish edi. Lekin natija har qanaqasiga bo‘lmasin evropalikka o‘xshardi.

Shundan so‘ng M. Gerasimov o‘z maqolasida quyidagicha bayon etadi: “Shuncha vaqtlar, yillar Temurning hech qanday aniq tasvirini qoldirmagan. Ko‘pgina Eron va Hindiston miniatyuralari bir-biri bilan deyarli mos kelmaydi. Miniatyuralar vaqtdan ancha keyin ishlanganligi uchundir ham mos kelmasa kerak. Lekin, ko‘pgina ma’lumotlarga qaraganda u turkiylashgan mo‘g‘ullarga xosligi, Eron va Hind miniatyuralarida ko‘rsatilgan Temurning Evropacha qiyofasida ko‘rsatilganini qat’iyan rad etish mumkin emas”²⁵.

Bizning tushunishimizcha Temur-mo‘g‘ul deyilishi uning faqatgina Buyuk Mo‘g‘ul imperiyasida yashaganligi uchungina aytib o‘tilgan. Bugun albatta “mo‘g‘ul” so‘zi o‘zining avvalgi ahamiyatini yo‘qotib, faqatgina irq bo‘libgina qoldi.

Topilgan odam suyagi baquvvat insonga tegishli, bo‘yi esa mo‘g‘ullarga nisbatan ancha baland (taxminan 170sm). Lekin Gerasimovning oldida asosiy muammo, qanday qilib o‘quvchilarga, ommaga Temurni kalla suyagini tiklaganda mo‘g‘ulga emas evropalikka xosligini tushuntirishni bilmadi. Shundan so‘ng u boshqa yo‘lini topadi. Suyak ustida ishlashda peshonani yaxshi ifoda etmasdan, uni yassi yuzli qilib ishlashga xarakat qildi. Bir qarashda evropeets tipiga mansub portretni ko‘ramiz, lekin aslini olganda bu kalla yassi yuzli. Bu Temur portretiga yaxshilab razm solinsa, unga Gerasimov mo‘g‘ullar bosh kiyimini kiydirib qo‘ygan. Agar shu bosh kiyimni olib tashlasak, aniq evropoid tipiga mansub insonni ko‘ramiz.

Keyingi ma’lumotlarga qaraganda, o‘lim vaqtida sochni tagi bilan qirib tashlash kerak, ammo Temurning sochi qirqilmagan va uzunroq bo‘lgan. Agar Temur-mo‘g‘ul bo‘lsa, sochi qora bo‘lishi kerak edi. Gerasimovning ma’lumoticha

²⁵ Temur va Ulug‘bek davri tarixi. Bosh muxarrir A.Asqarov. –Toshkent: Qomuslar bosh taxririyyati. 1996. – B. 21.

uning sochi ham evropaliklarnikiga xos bo'lgan. Aslini olganda Temurning sochi qalin, to'g'ri, to'q kashtan yoki sariq tusni beruvchi och-sarg'ish rangda bo'lgan. Soqollari esa yomon saqlangan bo'lib, qolgan izlaridan ham ko'p narsa aniq bo'lgan. Ularning rangi to'q kashtan rangda bo'lgan. Temur uzun mo'ylovli bo'lib, shariat bo'yicha lablarini atrofi soqol-mo'ylovdan holi bo'lmagan. Soqollari qattiq, deyarli to'g'ri, qalin, och jigarrang(sarg'ish) rangda bo'lgan.

An'anaviy tarixchilar Temur sariq tusda bo'lganligini allaqachon bilishgan. Bu aniq uning mo'g'ullarga hos emasligini bildirib turadi. M.Gerasimov nima qilishini, qanday tushuntirishini bilmay, oxiri bir xulosaga keldi. Temur qora bo'lgan, lekin sochini xna bilan bo'yab yurganligi bois, uning sochlari sarg'ish tusni olgan degan fikrni o'quvchilarga taqdim etadi. Bizga ma'lumki mo'g'ulning qora sochi xna bilan bo'yalganda ham hech qanday natijda bermaydi.

Hattoki taxminiy izlanishlar ham, Temur soqolining qizg'ish-sariq rangi tabiiy bo'lib, tarixchilarimiz aytib o'tgan xna bilan bo'yalmagan. Suyak ustidagi izlanishlar so'ngida yana bir fakt, Temurning qarib qolganligiga qaramasdan (70-72yosh), uning suyaklari to'g'ri, unda hech qanday qarilik a'lomati ko'rilmaydi. Buning barchasi bu topilgan suyak butunlay sog'lom, biologik yoshi 50 dan oshmagan insonga tegishliligidan darak beradi. Shunday bo'lishiga qaramay, bu suyakning o'ng oyoq-qo'li yaxshi bukilmaydigan, ya'ni kasalligi aniqlangan. Yakuniy xulosalar shuni ko'rsatadiki, birinchidan, agar topilgan tobutda haqiqatdan ham Temur yotgan bo'lsa, unda bu- evropa tipiga mansub, sariq sochlidir. Bunday xulosa butunlay o'rta asr manbalari bilan mos tushadi²⁶.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlangan miniatyuralar Frir Galereyasidagi 1434 yilda SHerozda ishlangan «Zafarnoma» miniatyuralari.

Rassomning miniatyura an'alariga rioya qilgan holda yaratgan asarlari Temur va Temuriylar davriga tegishli tarixiy qo'lyozmalarda ham uchraydi. Shulardan eng miniatyuraga boy va mazmun jixatidan aniq va sodda til bilan yozilgan qo'lyozmalardan biri XV asrdagi Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asaridir.

²⁶ Sharq miniatyura maktablari. Maqolalar to'plami. –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 84.

Asarga turli asrlarda, yillar davomida har xil rassomlar tomonidan turli xildagi miniatyuralar ishlangan. Bu asarlar hozirgi kunda nafaqat o‘zimizda, balki chet el kutubxonalarida nodir asar sifatida saqlanib kelinmoqda. Yazdiyning qo‘lyozmasi 1425 yil tugallangan. Bu asarga ishlangan birinchi miniatyura 1434 yil Sherozda ishlangan.

Bu manuskript Yazdiyning qalamiga mansub ilk ilyustratsiya ro‘yxati bo‘lib, bu ro‘yxatga kiritilgan miniatyuralar Monreal va Frirdagi galereyalarda hususiy kolleksiyada saqlanadi. U kompozitsiya hajmi bo‘yicha katta va Temur hayotidagi turli voqealarni tasvirlagan. Frir gallereyasidagi miniatyuralarning birida “Temurning Samarqandga tantanali kirishi” tasvirlangan.

Bu miniatyura Sheroz maktabiga xos bo‘lib, Temurning shaharga kirib kelishi va bino derazalardan qarab turgan odamlarni tasvirlagan. Asar markazida yurib ketayotgan kulrang-ko‘kish ot ustida qaxramonimiz Temurning o‘tirgani ko‘rsatilgan. Tasvirda Amir oddiy kiyim, toj o‘rnida jimjimadorsiz bosh kiyimda, qilich-qalqonda, oddiy fuqaro singari tasvirlangan. Shunday bo‘lishiga qaramay, biz uni bir ko‘rishdayok bu inson saroy, yurt egasi ekanligini fahmlaymiz. Rassom uni qo‘shimcha detallar bilan ochib bergan. Temur ortidagi xizmatkor qo‘lidagi uzun asoli soyabon tutib ketishi, yuqoridan qarab turgan insonlarning yashirilib ko‘rsatilishi kabi obrazlar yordam bergan. Miniatyura koloriti to‘q ranglarda asosan qizil, ko‘k, yashil ranglar gamasida. Kompozitsiya kam figurali va oddiy. Qizig‘i shundaki bu miniatyurada ishtirok etuvchilar ko‘p emas, ular: sohibqiron, ularning ortlarida soyabon tutib kelayotgan xizmatkor va bino derazalardan qarab turgan ikki qomatni tasvirlagan. Bir tomondan bu Temur timsolini mahobatlashtiradi lekin, boshqa tomondan salbiy timsolga undaydi. Shahar aholisining qo‘rquvi va ularning kamligini ko‘rsatgan rassom Yazdiy kabi Temurni qoralab ko‘rsatishga harakat qilgan. Keyingi mashxur miniatyuralardan farqli ravishda epizodga boy va xarakat to‘la asarlar qo‘lyozma yozib bo‘linganidan ancha keyin ishlangan. “Zafarnoma” qo‘lyozmasiga keyingi asrlarda ham turli rassomlar murojaat etganlar. Bu miniatyuralar bugungi kunda Toshkentdagi Beruniy nomli sharqshunoslik nistitutida ajoyib qo‘lyozmalar yonidan o‘rin olgan.

Unda yozilishicha, Amir Temur tarixini xikoya qiluvchi bu kitob XV asr birinchi yarmida Hirotda ko‘chirilgan. Manuskript katta Suls xati «yoqutiy»da ko‘chirilgan. Muqovasi charmdan qilingan. Shtampida yigirmanchi asr belgisi bilan sanalangan. Ali Muhammad o‘g‘li Abduraxmon tomonidan ishlangan, Manuskript ikkita to‘liq bo‘lmagan XV asr birinchi yarmiga tegishli bulgan Hirot maktabi miniatyurasi bo‘lib belgilangan. Bitta folio boshida va ikkita oxirida qir qilgan.

Bu uch miniatyuradan birinchisi va ikkinchisi diptix hisoblanib, unda shaharning umumiy ko‘rinishi tasvirlangan. Diptixning o‘ng tomoni: bu ponarama fragmenti dinamikani rivojlangan qismini ko‘rsatadi. Fragmentlar ranglarsiz qilingan. Ingichka kontur chiziqlar ayrim joyda berilgan. Pastroq qismidagi qasr qismi-saroy, shaxar binolari, maschit va binolar tasviri o‘rin olgan. Keyinchalik, qaysidir qismida inson qiyofasi, qushlar, ot chizilgan. Kopozitsiyaning chap tomonida esa, panoramaning fragmentida tepadagi markaz qismida qisman to‘rt dan bir qismi rivojlangan shahar ko‘rsatilgan. Pastroq qismida ingichka chiziqlar bilan devordagi shoxona ayvon kalonnalari chizilgan. Bu bezak devorni yarmini egallagan. Tepa qismida vertikal xolatda kesilgan binolar qismi, do‘konlar intereri, maschit, ibodatxona, uylar, boy bezatilgan devorlar, eng yuqori qismini esa, shaxar devori panoramani yakunlaydi.

Uchinchi miniatyura-sohibqiron yurishlari. Bu qo‘lyozma rasmlari oxirigacha ishlangan bo‘lmasa xam, bizga asardagi qiziqtirgan mavzularni ochib beradi. SHarqshunoslik institutida eng mashhur asarlardan biri Yazdiyning qo‘lyozma ro‘yxati saqlanib kelinmoqda. Unda o‘n ikkita miniatyura jamlangan. Bu Samarqand qog‘oziga nastaliq yozuvida yozilgan. Bu o‘n ikki miniatyura Samarqand maktabiga tegishli bo‘lib, unda turli xil sahnalar o‘rin olgan. Miniatyura syujetlari shunday tanlanganki, Temur syujetini hamma qiralarini ko‘rsatgan. Eng qizikarlisi, xech qaysi sahna ko‘rinishiga o‘xshamagan bir tasvir hammani o‘ziga jalb qilsa kerak. Bu sevishganlar sahnasi hisoblanib, «Amir Temur haramidagi Dilshad og‘o bilan» deb nomlanadi. Bunday muhabbat sahnasi Sharq miniatyurasida kam uchraydi. U islom yozuvlaridan chetga chiqmagan bo‘lishi kerak deb mulohaza qilingan. Shunday bo‘lishiga qaramay, rassomlar ayrim

holatda bu taqiqni buzishgan. «Zafarnoma» yozuvida bunday sahna tungi bog‘da ochib berilgan. Yozilishicha, Temur Dilshod og‘o bilan ayshu-ishrat bilan mashg‘ul bo‘lmoqda. Uning barcha xoxlagan buyumlari muhayyo bo‘lmokda. Bahor gullaridek toza havo. Yonlarida oltin piyola sharob bilan to‘ldirilgan bo‘lib, sevishganlarni kutayotgandek. Mana shu manbaga rioya qilgan holda rassom, engil pavilon-tilla parda bilan ko‘tarilgan. Sevishganlar juftligi, ikki xil rangli shamchiroqlar, likopchadagi anorlar, bayram idishlari yonida rangli ko‘rpa to‘shalgan. Qora soqolli Temur yorqin rang sochli go‘zal Dilshodni mahkam quchoqlab turibdi. Yon tomonda esa, past buyli, go‘yoki g‘ayr ko‘zli hizmatkor kuzatib turibdi²⁷.

Mana shu kabi tantanavorlikni davom ettirayotgan saxna, bu- «Temur Samarqand tevaragidagi bazmda». Kompozmsiya detallari, qatnashchi va aksesuarlarning aralashuvidagi an‘anaviy shox sayohatini yoki tabiat qo‘ynidagi bazmni biz XV-XVI asr miniatyuralarida kuzatganmiz. «Zafarnomada»gi bunday sahna 1493 yilgi Temurning odatiy yurish g‘alabalaridan so‘nggi, Samarkand atrofidagi bazmi tasvirlangan. Bu erda Temur boy tikilgan soyabonda kompozitsiya markazida; uning oldida uch yigit (shoxning oilasidan ekanligi ko‘rinib turibdi) bayramona kosa oldida, atrofida shaxar ayonlari kamon o‘qlarida, hizmatkorlar, musiqachilar, lekin bularning barchasi tinch hurmatli etiketli ko‘rinishda turmay, balki turli yo‘llarga qaratilgan. Bu osoyishtalik sahnasi huddi jang sahnalari singari dinamikali- bir-biri bilan kesishuvchan figuralar va chalkash qomatlar, daraxtning ezilgan tanasi va shoxlari, ularning barchasi yorqin lovullagan kolorit ranglarning boyligini ifodalaydi.

1628 yilgi «Zafarnoma» illyustratsiyalari 1676 yilgi Muxamad-Sharifning «Bo‘ston» miniatyuralariga stili bo‘yicha yaqin. Bunga sabab balki 12 yil avvalgi ustalar yaratgan yoki ularning uslubidagi izdoshlari bajargan.

Shu miniatyuralar ichidagi jang saxnalariga bag‘ishlangan tasvirlardan biri

²⁷ Usmonov O va Madraximov A. Kamoliddin Behzod. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me’rosi nashriyoti., 2000. – B. 24.

bu- «To‘xtamish armiyasi bilan to‘qnashuv» deb nomlanadi. 1431 yil o‘zining ashaddiy dushmani oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon ortidan kuzatib, Temur ularni Kavkaz g‘orlarigacha quvib borib, xal qiluvchi jangni amalga oshirdi. Temur shaxsan tanlangan askarlari bilan tongda jangga otlandi. Daryodan o‘tib, shamol kabi ularga tashlanib, dushmanini o‘zining charaqlab turgan qilichi bilan qira boshladi. Tepalik dushman qoni bilan qoplanib g‘oliblik g‘unchasi ochildi.» deya tariflaydi Yazdiy o‘z kitobida. Bu rangda so‘zlar miniatyuraning umumiy u slubida aks etgan. Unda soni kam bo‘lgan inson qatnashgan bo‘lsada, guyo ikki armiyaning jangi kelayotganini tasvirlagandek tuyuladi. Hammasi va barchasi kuchli xarakterda qiyin burilishlarda berilgan. Ko‘m-ko‘k osmonda kichik bulutlar fonida, yirik qizg‘ish bargli yagona daraxt ulkan o‘rta Osiyo tog‘lariga o‘xshash Kavkaz tog‘lari fonida. Ranglar gammasi yorqin bir-biriga o‘tuvchi kontrasti syujetning umumiy badiiy echimini ochib, uning ranglar zo‘riqishini kuchaytiradi.

Xulosa.

Bitiruv malakaviy mavzusining izlanishida biz bir nechta xulosaga keldik.

Badiiy bezatilgan Sharq qo`lyozma kitoblari, kitobat san'ati xam ilmiy-tarixiy, xam badiiy - estetik, xam ma'naviy - ma'rifiy qiymati bilan umumjaxon madaniyati xazinasini bilan noyob san'at asarlari sifatida munosib o`rin egallagan. Ushbu san'atning tarkibiy qismi, Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosi va iftixori bo`lmish miniatyura san'ati ko`p yillar mabaynida asosan sharqshunoslar, etnograflar, san'atshunoslar, filologlar va tarixchilarning diqqat markazida bo`lib keldi.

Chunonchi, Sharq miniatyura san'atining yetuk tasviriy san'at turi sifatida uning mazmuni, qoyasini badiiy estetik idrok etish jarayonida ularda tasvirlangan ijtimoiy xayot, tarixiy evalyusiyalar, personajlarning ichki dunyosi, adabiy asar miniatyura mualliflarini aks ettirayotgan voqea va xodisalarga nisbatan ifodalangan o`zlarining falsafiy muloxazalari, qarashlari, bu voqea va xodisalardagi etnik xususiyatlarni anglab yetish, baxo berish va ular asosida o`z munosabatlarini amaliy, tasviriy ko`rinishda ifodalash muqim aqamiyat kasb etadi. Bu masalani bir tomoni. Yana bir muxim masala - o`quvchilarga Sharq miniatyura san'atining jaxon madaniyatida tutgan o`rni, Sharq miniatyura maktablari va markazlari, ularda mavjud bo`lgan badiiy umumiylik va tafovutlarning sabablari, bu maktablarni zabardast vakillari xaqida ma'lumotga ega bo`ladilar. Shuningdek, Sharq miniatyura san'atining mustaqil san'at turi sifatida shakllanish tarixi, uning san'atning boshqa turlari, xususan adabiyot bilan boqliqligi, xar bir asardagi taraqqiyot darajalarini shu zamonnini ijtimoiy - siyosiy va madaniy xayoti bilan boqliqligi xaqida ma'lumotga ega bo`ladilar.

Sharq miniatyuri san'atini o`rganish, ayniqsa uning tasviriy usullari aks ettirilgan tasviriy lavxalarda milliy xarakterdagi qarashlarni qo`llash usullaridan baxobar bo`lish bilan bir qatorda ularni turlashtirish prinsiplari bilan xam tanish bo`ladilar. Masalan o`rganiladigan asar personajlarining o`rganish jarayoni to`garak qatnashchilari uchun samarali bo`ladi. Faqat Sharq miniatyuralaridagi

qaxramonlarning o`rganish jarayoni qator tarbiyaviy – pedagogik masalalarning yechimini ochib berish va xal etish imkonini beradi. Jumladan bu jarayonda o`quvchilar Sharq miniatyura san'atidagi o`ziga xos tasviriy usullardan tashqari tasvirlangan personajlarning liboslarini o`rganish orqali ilmiy va badiiy ahamiyat kasb etuvchi tarixiy sana va voqealardan voqif bo`ladilar, personajlarning tabaqasi, yosh kategoriyasi xamda kasbi-kori to`qrisida tasavvur oladilar. Xuddi shu tamoyil asosida Sharq miniatyura san'atida o`z ifodasini topgan badiiy naqqoshlik va ganchkorlik namunalari, ayniqsa saroylar, qabulxonalar, istiqomat qiladigan joylarning, interyerlarini bezashda sharqona me'morchilikdagi an'analarini qo`llanish xususida ma'lumotni boyitadilar.

Sharq miniatyura san'atida Kamoliddin Bexzod va uning takrorlanmas badiiy tasviriy maxorat maktabi san'atdagi kamolot namunasi bo`lgan bo`lsa, Temuriylar davri ilm - fani, ayniqsa adabiyotga miniatyura san'ati yuksaklikka erishdi. Umuman ilm - fan va madaniyatning oltin asri bo`lib tarixga kirdi.

Miniatyura san'ati asarlarini idrok etishda uning funksional vazifalari badiiy bezatilgan qo`lyozma asarlarining tarkibiy qismi, ajralmas badiiy – grafik elementi sifatida qarash lozim. Bunday yondashish tadqiqotchilarning bu durdona san'atdagi sintezni ilq`ash, ularning xamoxangligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va taxlil qilish imkonini beradi. Jumladan so`z bilan tasvir birligidagi badiiy matn va badiiy tasvir sintezi, badiiy bezatilgan qo`lyozma asarlarini yaratilishida turli kasb egalari - xattot, naqqosh, muzaxxib, lovvox va musavvirlarning ijodiy hamkorligining samarali yuksak badiiy qiymatga ega bo`lgan, badiiy jixatdan mukammal bezatilgan qo`lyozma asarlarini yaratilishini asosiy zamini ekanligi xaqida taassurotga ega bo`ladilar. Masalaga shu tariqa yondashish xattotlik badiiy nakkoshlik kabi miniatyura san'atiga aloqador bo`lgan san'at turlaridan alohida mashq`ulotlar o`tkazish imkonini berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. – Toshkent: O'zbekiston. 1996. – 62 b.
2. Karimov I.A. Tarixsiz xotirasiz kelajak yo'q. –Toshkent: Sharq, 1998. – 148 b.
3. Karimov I.A. O'zbek xalqi xech qachon xech kimga qaram bo'lmaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2005 – 448 b.
4. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarini o'rganish bo'yicha Metodik Qo'llanma. –Toshkent: Universitet. 1997. – 156 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008 yil. – 148 b.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001. – 206 b.
7. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatining shakllantirish–mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 345 b.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili–buyuk kelajagimizning garovidir. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 144 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
10. Karimov I. A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – T.: O'zbekiston, 2012. – 312 b.
11. Karimov I.A. Mustaqillik–barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2013 yil 2 sentyabr.

12. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish–yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. O‘zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
13. Karimov I.A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O‘zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqi. O‘zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.
15. Abdullaev N. San‘at tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1987. -272 b.
16. Buyuk Temur davlati. – Toshkent: CHO‘lpon, 1996. – 160 b.
17. Ali M. Amir Temur chamani. – Toshkent: O‘zbekiston. 2006. – 217 b.
18. Amir Temur va uning jaxon tarixidagi o‘rni mavzuidagi xalqaro konferensiya materiallari. –Toshkent., 1996 yil. -128 b.
19. Amir Temur jaxon tarixida tutgan o‘rni. Mas‘ul muxarrir X.Karomatov. – Toshkent: SHarq, 2001. – 140 b.
20. Ahmedov B. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida (Risola). – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 312 b..
21. Ashrafiy M. Temur va Ulug‘bek davri Samarqand miniatyurasi. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1996. – 88 b.
22. Ashrafi M.M. Buxarskaya shkola miniatyurnoy jivopisi. –Toshkent., 1974. – 28 s.
23. Ashrafi M.M. Bexzad i razvitie buxarskoy shkoly miniatyurnoy jivopisi XVI v. Dushanbe, 1987. – 123 s.
24. Ahmedov B. Amir Temur darslari. –Toshkent: SHarq, 2001. – 144 b.
25. Bo‘riev O. Amir Temur. –Toshkent: CHO‘lpon. 1996. – 416 b.

26. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fii tarixi Taymur/ So‘z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi U.Uvatov tayyorlagan. Mas’ul muxarrir A.O‘rinboev. 1-kitob. –Toshkent., 1992. – 156 b.
27. Ismailova E.M. Iz istorii miniatyury i stran Srednego Vostoka. –Toshkent. 2001. – 100 s..
28. Ashrapova I. Kamoliddin Behzod. –Toshkent., 1982. – 126 b.
29. Karim G‘. Sohibqiron va alloma: tarixiy qiyosalar. –Toshkent: SHarq. 2002. – 240 b.
30. Norqulov N., Nizomiddinov I. Miniatura tarixidan lavhalar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1970. – 144 b.
31. Norqulov N. Kamoliddin Behzod. –Toshkent: Fan, 1964. – 147 b.
32. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san‘ati tarixidan lavhalar. –Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 158 b.
33. Polyakova E.A., Raximova Z.I. «Miniatura i literatura Vostoka: Evolyusiya obraza cheloveka» . –Toshkent., 1992. – 125 s.
34. Pugachenkova G.A. Sredneaziatskie miniatyury XVI-XVIII vekov v izbrannykh obrasax. –Toshkent., 1992. – 98 s.
35. Samarqandiy.A. Matlai sa‘dayn va majmai baxrayn. –Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 632 b.
36. Sattoriy X. Amir Temur sevgan yurt. Badialar. –Toshkent: O‘zbekiston. 1996. -128 b.
37. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. Bosh muxarrir A.Asqarov. –Toshkent: Qomuslar bosh taxririyyati. 1996. – 218 b.
38. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –Toshkent: Fan, 1997. – 189 b.
39. Usmonov O va Madraximov A. Kamoliddin Behzod. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me‘rosi nashriyoti., 2000. – 48 b.
40. SHarq miniatura maktablari. Maqolalar to‘plami. –Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. – 184 b.